

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI
TARIXI: YANGICHA QARASHLAR
VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

2022

**G‘afurov A.F. tarix fanlari nomzodi,
dotsent**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI:
YANGICHA QARASHLAR VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

O‘zbekiston tarixi

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **A.F.G‘afurov** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchi: **K.J.Raxmonov** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2021 yil “30” dekabdagi 5-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| I. ISHCHI DASTUR | 5 |
| II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI | 10 |
| III. NAZARIY MATERIALLAR | 23 |
| IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI | 73 |
| V. GLOSSARIY | 89 |
| VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI | .98 |

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” modulini modulini ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganishda tinglovchilar qariyb uch ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixida yuz bergan o‘zgarishlarni, tarixiy jarayonlarning nazariy konseptual masalalarini yangi chop etilgan darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni tahlil etilishi natijasida o‘zlashtiradilar.

Modulning maqsadi va vazifalari

“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” modulining maqsadi: uch ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixida yuz bergan o‘zgarishlarni o‘rganish, davlatchilik yo‘nalishidagi jarayonlarni muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashishlar hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, zamonaviy, yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdan iborat.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar modulining vazifalari:

- Davlatchilik tushunchasi va davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar xaqidagi tasavvurni rivojlantirish;
- O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari oid manbalardan samarali foydalanish uchun yangi tarixiy ma’lumotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish;
- O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi masalalarini ochib berish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma, malakalariga qo‘yiladigan talablar

“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi:**

- Davlatchilik tushunchasi va davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlarni bo‘yicha adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalarni bilishi;
- O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli, rivoji haqida **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi**;
- har bir O‘zbekiston tarixiy davrida O‘zbekiston tarixiy tadqiqotlar ko‘lami, har bir davrning o‘z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslarini mukammal bilish **malakalarini egallashi** lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “**O‘zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etilishi**” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar **O‘zbekiston davlatchiligi tarixi** masalalari orqali xorijiy tajribalarni o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar va yo‘nalishga mos zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.

Modulning soatlar bo‘yicha taqsimoti

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | |
|----|---|--------------------------------------|----------------------------|--------------------|-------------------|
| | | Hammasi | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | |
| | | | Jami | jumladan | |
| | | | | Nazariy mashg‘ulot | Amaliy mashg‘ulot |
| 1. | Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar | 2 | 2 | 2 | |
| 2. | O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari | 2 | 2 | 2 | |

| | | | | | |
|-------------|--|----|----|---|----|
| 3. | Turkistonda xonliklar davri va Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruvi masalalari | 2 | 2 | 2 | |
| 4. | O‘zbekistonda davlat boshqaruvining shakllanishi va rivojlanib borishi | 2 | 2 | 2 | |
| 5. | Davlatlar paydo bo‘lishi va davlatchilik tushunchasi | 2 | 2 | | 2 |
| 6. | Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar | 2 | 2 | | 2 |
| 7. | Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr | 2 | 2 | | 2 |
| 8. | So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari | 2 | 2 | | 2 |
| 9. | Rossiya imperiyasi va sovet davri mustamlaka boshqaruv tuzumi | 2 | 2 | | 2 |
| 10. | Mustaqil O‘zbekistonda davlat boshqaruvining shakllanishi va rivojlanib borishi | 2 | 2 | | 2 |
| Jami | | 20 | 20 | 8 | 12 |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.

Reja:

1. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”.
2. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.

2-mavzu: O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari.

Reja:

1. O‘zbekistonda davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.
2. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.

3-mavzu: Turkistonda xonliklar davri va Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruvi masalalari.

Reja:

1. So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari: ma‘muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari.
2. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari.

4-mavzu: O‘zbekistonda davlat boshqaruvining shakllanishi va rivojlanib borishi.

Reja:

1. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.
2. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Davlatlar paydo bo‘lishi va davlatchilik tushunchasi.

Reja:

1. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”.
2. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.

2-mavzu: Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.

Reja:

1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.
2. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.

3-mavzu: Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr.

Reja:

1. Amir Temurning davlat boshqaruvi masalalari.
2. Temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.

4-mavzu: So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari.

1. Buxoro xonligi va Buxoro amirligi: ma‘muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari.
2. Xiva va Qo‘qon xonliklarining davlatchilik shakli.

5-mavzu: Rossiya imperiyasi va sovet davri mustamlaka boshqaruv tuzumi.**Reja:**

1. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari.
2. Sovet davri boshqaruvi.

6-mavzu: Mustaqil O‘zbekistonda davlat boshqaruvining shakllanishi va rivojlanib borishi.**Reja:**


1. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.
2. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat

qiladi. U ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.


Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

3. “Konseptual jadval” GO

Ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:



4. “Klaster” GO

“Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

5. “Konferensiya” metodi

Texnologiya ta'lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqib olish ko'nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga o'zlarida ijobiy fazilatlarni ko'proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

6. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Metod ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llash ta'lim oluvchilardan o'rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o'zlashtirish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Metod ta'lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy ishning yo'nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

7. “FSMU” metodi

Grafik organayzer ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:


| № | Тушунчалар | (Ф) | (С) | (М) | (У) |
|----|-----------------------|-----|-----|-----|-----|
| 1. | Таълим методлари | | | | |
| 2. | Таълим воситалари | | | | |
| 3. | Таълимни ташхис қилиш | | | | |

8. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u



yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida esa berilgan savolga

ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar.

“Aqliy hujum” metodining og'zaki turidan foydalangan holda quyidagi savollar beriladi:

1. Ta'lim jarayonida qadriyatlar tizimining o'rnini ko'rsating?
2. O'zbekistonda ta'limni tashkil etishining asosiy bosqichlarini ochib bering?
3. Ta'lim jarayonining ichki imkoniyatlari va muammolariining muhim jihatlarini ta'riflab bering?
4. Boloniya deklaratsiyasining asosiy yutuqlari va kamchiliklari?
5. Ta'limning insonparvarlashuvi va axborotlashuvida falsafaning rolini ochib bering?
6. Ta'limning qaysi shakllarini bilasiz?

“Aqliy hujum” metodining yozma turidan foydalangan holda quyidagi savollarga yozma to'liqroq variantda javob yozishlari talab etiladi:

1. Ta'lim falsafasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Dunyo ta'lim makonida gumanitar ta'limni tashkil etish imkoniyatlari?

| | |
|------------------------------|--|
| Aqliy xujum | -(breynstorming – miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma'lumot yig'ish |
| Usulni asosiy g'oyasi | -g'oyalar to'plash, ularni baholash va tahlil qilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-xarakati uchun bu g'oya asosiy ko'rsatgich bo'lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko'p g'oyalar taklif qilishga undaydi. |
| Qoidalari | Imkoni boricha ko'proq g'oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo'yish. |
| Ta'lim beruvchi | Qatnashchilarni 3-4 guruxga bo'ladi va xar biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1) -Ishtirokchilarni qo'llab-qo'vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, xa-yo'q so'zlari bilan); -yumshoq, ammo astoydil talabalarni boshkalarni tanqid |

| | |
|----------------|--|
| | <p>kilishdan kaytarib turadi;</p> <p>-xar bir fikrni o'zgartirmasdan doskaga yozdirib qo'yadi;</p> <p>-talabalarni so'rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o'tkazadi (blis so'rov) (Ilova 2).</p> |
| Fidbeyk | <p>-har bir g'oyani muhokama qilish;</p> <p>-eng to'g'ri g'oyalarni qo'llab-kuvvatlash</p> |

3. Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

Aqliy hujumni o'tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni topish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarni paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

“LOYIHA” metodi




“Loyiha” metodi - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-

nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH

Ta’lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o‘z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqqacha)

“Insert jadvali”

Tinlovchilarda ma’ruzalar va mustaqil ta’lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma’lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma’lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval

egallagan bilimlarini yangisi bilan bog‘lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o‘z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo‘yicha mustaqil ishlab, yangi ma’lumotlar oladi, ularni matnda qo‘yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Namuna:

Insert jadvali

“O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR”

| V | + | - | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |

“V”- haqidagi bilimlarimga javob beradi;

“+” haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

“-” yangi ma’lumotlar

“?” mavzuga oid tug‘ilgan savollar

“T-jadval” metodi

Jadval shaklida berilgan topshiriqni mohiyatiga ko‘ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish talab etiladi. Jadvalning o‘ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlari bayon etiladi, masala yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

Namunalar:

| Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari | |
|--|--|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |


| Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining yutuq va kamchiliklari | |
|---|--|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: “Dinlarni o‘rganishda samarali uslublardan biri mintaqaviy yondashuv” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

| Tushuncha | Hal qiluvchi kuch | Samarasi nimada aks etadi | Yondashuvni ilgari surgan olimlar |
|-----------------------------|-------------------|---------------------------|-----------------------------------|
| <i>Qiyosiy dinshunoslik</i> | | | |
| <i>Vijdon erkinligi</i> | | | |
| <i>Din sotsiologiyasi</i> | | | |
| <i>Totem</i> | | | |

Izoh: Bo‘sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

➤ ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

| Belgilar | 1-matn | 2-matn |
|--|---------------|---------------|
| <i>“V” – tanish ma'lumot.</i> | | |
| <i>“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak</i> | | |
| <i>“+” bu ma'lumot men uchun yangilik</i> | | |
| <i>“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?</i> | | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi

Maqsadi: o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqiqa davomida sinchiklab o'rganish talab etiladi. .
2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi guruh a'zolarini o'qilgan ma'lumot haqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
3. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarining xar biri o'qigan ma'lumot haqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.
4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi, va fikr

almashingan ma'lumot yuzasidan boshqa guruhlariga berish uchun savol shakllantiradi.

5. Har bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va to'g'ri javob uchun 1-3 gacha ball qo'yiladi.

6. Trener-o'qituvchi barcha guruhlar to'plagan ballarni umumlashtirib, g'olib guruhni e'lon qiladi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa: Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so'ng guruhda muxokama qiling

| | |
|--------------------------|--|
| <i>1- guruxga vazifa</i> | <p>Multiskript bu axborot uzatishning o'ziga xos shakli bo'lib, bir tomondan katta hajmdagi videomateriallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o'z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediyaviy formatlarni oladi. Bizni qiziqtirgan videotasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez va katta aniqlikda tanlab olish mumkin. Multiskript o'z ichiga uchta blokni oladi – pleer, “stenogramma” va “mazmun”. Videomaterialni ko'rish uchun pleer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Videotasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko'rishni uch yo'l bilan amalga oshirsa bo'ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - pleer tagida joylashgan kursor yordamida; - “Stenogramma” blokida mant fragmentini bosib; - “Mazmun” blokida sarlavhani aktivlashtirish orqali |
| <i>2- guruxga vazifa</i> | <p><i>Slayd-shou. Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo'yiladi. Slayd-shou ovoz bilanbirgalikda audio-illyustratsiya elementlarini, ya'ni audiotsitatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan to'yintirilgan matnni o'z ichiga olishi mumkin. Vizual ketma-ketlik ixtiyoriy. Ular voqea joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturalar va h.k. bo'lishi mumkin. Bu texnologiya reportaj, ocherk, ba'zida yangiliklarni illyustratsiya qilish uchun kerak.</i></p> |

| | |
|-------------------|--|
| 3- guruxga vazifa | <p><i>Audioslayd-shou – zamonaviy jurnalistikaning multimediyaviyligi sabab yaratilgan fotoillyustratsiyalashtirishning sintetik varianti bo‘lib, mustaqil janrga aylandi. Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo‘lgan. Ba’zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbirda yozib olingan ovozni qo‘llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo‘yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozitsiya yoki muallif o‘qigan matn bo‘lishi mumkin. Mazmunning asosi bo‘lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audiotsitata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqea sodir bo‘lgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujjatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</i></p> |
| 4-guruxga vazifa | <ul style="list-style-type: none"> - <i>Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo‘lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, ob’ektlarni, peyzaj, joylarni tasvirga olishda ularning masshtabini ko‘rsatishda aktualdir.</i> - <i>Interaktiv foto – shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo‘yilgan bo‘lib, ularni bosganda matn, video, ssılka, ijtimoiy to‘rlarning statuslari chiqadi.</i> |

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.

Reja:

1. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li", mulkchilikka asoslangan "Yevropacha yo'li".
2. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.

Tayanch so'zlar: Davlatchilik, sivilizatsiya, tarixiy-madaniy viloyatlar, arxeologiya, tarixiy madaniy me'ros, "Avesto", Zaratushtra, Zardushtiylik, Dyupperon, Yasna, Yasht, Vispart, Videvdat, nmana, nmanapati, vis, vispati, daxiyu, daxiyupati, xanjamana, sastar, kavi, fors bitiklari, Axamoniylar sulolasi, Behustun Naqshi Rustam, Geradot, "Tarix" kitobi, G'arb sharqshunoslari, mustaqillik yillari tadqiqotlar.

Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li", mulkchilikka asoslangan "Yevropacha yo'li".

Miloddan avvalgi IX-VIII asrlar O'rta Osiyo tarixida bronza davridan ilk temir asriga o'tish davri bo'lgan.

O'rta Osiyoning temir davri tarixini o'rganishda yozma manbalarning kamligi hamda to'liq emasligini e'tiborga olish lozim.

O'rta Osiyo va O'zbekistonning qadimiy viloyatlari jamiyati to'g'risida muhim yozma manbalar – "Avesto", (mil. avv. IX-VIII, VII-VI asrlar), ahamoniylar davri (mil. avv. VI-V asrlar) yozma yodgorliklari va qadimgi yunon tarixshunoslari (mil. avv. V-IV asrlar) hiqoya qiladi. Afsuski, "Avesto"ning eng qadimgi qismlari bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Mazkur to'plam mi-lodiy III-VII asrlarda tahrir qilingan. "Avesto"ning keyingi bizgacha yetib kelgan qismlari to'rt kitobnigina o'z ichiga oladi. Yasna ("qurbonlik", - duolar yoki qurbonlik keltirish), Yasht ("qadrlash", "ulug'lash" - ma'budlar uchun

madhiyalar), Videvdat (“devlarga qarshi qonun”), Visprat (“barcha hukmdorlar”). Bu kitoblar yozilgan til “Avesto” tufayligina ma’lum bo’lib, avesto tili deyiladi.

Ko’p qatlamli, murakkab manba hisoblangan, “Avesto” asrlar davomida shakllanib borgan. “Avesto”ning eng qadimiy qismlarida keng hududda joylashgan jamiyat tasvirlangan bo’lib, mazkur jamiyat haqida hali yozuv mavjud bo’lmagan zamonlarga oid tasavvurlar saqlangan. O’rta Osiyo uchun “Avesto” ma’lumotlari arxeologik manbalar bilan solishtirilgan holda keng davriy chegara oralig’ida - bronza davridan tortib qadimgi dunyo - antik davrgacha bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy tarixni yoritishda foydalaniladi.

“Avesto” zardo’shtiylik dining mo’qaddas kitobi bo’lib, u Zaratushtra (Zardo’sht) dinidagi xalqlarning shariat qonunlari majmuidan iborat. Zaratushtra (yunoncha Zoroastr) ismi bilan atalgan zardo’shtiylik (zaratushtrizm, zoroastrizm) O’rta Osiyoda islom dini joriy etilishidan oldin kengtarqalgan “Avesto”ning ba’zi bir qismlarida Zaratushtra “zaotara”yoki “ataurvon”, ya’ni kohin tarzida tilga olinadi. Zardushtiylik dini tarixi bo’yicha yetakchi mutaxassislar mazkur holatga alohida e’tibor qaratar ekanlar, Zaratushtra bu dinning yagona asoschisidir, shuning bilan birga, u ham kohin, ham zardushtiylarning payg’ambari edi, deb faraz qiladilar.

“Avesto” O’rta Osiyo viloyatlarining qadimgi tarixi, ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy hayoti va ma’naviy madaniyatini o’rganishda muhim manbadir. “Avesto”ning eng qadimgi hududiy geografik nomlari O’rta Osiyo viloyatlari bilan bog’langan (Yasht kitobi, 10-bob). Ruyxatdagi birinchi mamlakat - “Aryonam Vaychax” yoki “Aryoshayyona”, “Aryonam Vayjo”. U yurtda ko’pdan-ko’p yaylovlarga ega baland tog’lar, keng daryolar va chuqur ko’llar mavjud bo’lgan. Yasht kitobida Iskata, Porutu, Mouru, Gava So’g’da (So’g’d makoni) va Xorazm kabi boshqa mamlakatlar ham tilga olingan.

“Avesto” Videvdat kitobining birinchi bobida sanabo’tilgan quyidagi viloyatlar Yasht kitobidagi mamlakatlar ro’yxatidan ancha farq qiladi: Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Baxdi, Nisayya, Ar’yo, Vaekereta, Urva, Xnanta, Xaytumant, Raga, Chaxro va Varna.

“Avesto”da Xorazm, Marg‘iyona, So‘g‘d, Baqtriya viloyatlari yirik mamlakatlar qatorida tilga olingan. Shuning bilan birga, Aryonam Vayjoni ham keng o‘lka sifatida tushunish mumkin. U yerda baland tog‘lar - Pomir, Hisor, Tangritog‘, chuqur ko‘llar - Kaspiy, Orol, Issiqko‘l, keng daryolar - Amudaryo va Sirdaryo joylashgan deb faraz qilinadi.

“Avesto”da keltirilgan qadimgi ma‘lumotlar O‘rta Osiyoda harbiy-siyosiy birlashmalar tashkil topgan davrlarga (mil. avv. IX-VIII asrlar) mansubdir. Shu davr aholisining bir qismi o‘troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan, boshqa bir guruhi esa ko‘chib yuradigan chorvachilik shakliga o‘tgan. Ular o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshiliklar, kurash va tinimsiz bosqinlar “xonadonlarga, kishloq, viloyat va mamlakatga qashshoqlik hamda vayronalik keltirdi”. “Avesto”da aynan ana shu davrda hukm surgan podsholar sulolasi - kaviylar (“Shoxnoma”da - kayyoniyalar) ro‘yxati quyidagicha: Xaosh‘yonx (“Shohnoma”da - Xushang), Yima (Jamshid), S‘yovarshon (Siyovush), Kavi Xaosrov (Kay-Xisrov), Kavi Vishtasp, Kavi Qavat (Kay-Qubot), Kavi Usan (Kaykovus), Kavi Pishin (Kay-Pishin), Kavi Arshan (Kay- Aresh). Kavi Vishtaspdan boshlab keyingilari Zaratushtra ta‘limotining tarafdorlari bo‘lgan. Kavi Xaosrav ariylar mamlakatlarini birlashtiruvchi podsho bo‘lib, “tur” - chorvador qabilalarning yo‘lboshchisi Frangrasyon (“Shohnoma”da-Afrosiyob) bilan jang qilgan. “Avesto”ning Mouru, So‘g‘da, Baxdi, Xorazm aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan, “tur” qabilalarining (va keyin sak-massaget qabilalarining) iqtisodiy hayotida chorvachilik alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning dashtlari va tog‘lari chorvachilikning rivojlanishiga kulay sharoit yaratib bergan.

“Avesto”da tilga olingan qabilalarning dastlabki vatani Aryoshayyona (Aryonam Vayjo) ham yaylovlarga boy bo‘lgan. Yasht kitobining uninchi bobida bunday xabar qilinadi: “U mamlakatning jasur sardorlari ko‘pdan-ko‘p harbiy yurishlar qiladi, u yerda o‘tloqlar va suvga serob baland tog‘lar chorvachilik hayotiga asos solgan”. Shuning uchun ham Aryonam Vayjo tangri Axuramazda

ifodasi bilan yashash uchun eng yaxshi joy deb hisoblangan va “Avesto”ning ruyxatlarida bu o’lka birinchi navbatda tilga olinadi. “Avesto”ning geografik tushunchalari qadimgi fors tilida yoritilgan ahamoniylar davri yozma manbalarida va qadimgi yunon tarixshunoslari asarlarida takror etilgan. Miloddan avvalga II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlarida O’rta Osiyoda yashab o’tgan qabilalar yangi etnik jarayonlarga asos solib, shu hududda so’g’dlar, baqtriyalik xorazmlik marg’iyonalik va sak-massagetlarning paydo bo’lishlariga sababchi bo’lgan.

Ahamoniylar mixsimon yozuvlari Behustun va Naqshi Rostam qoyatoshlari, Suza, Hamadon va Persepol shaharlaridan topilib, tekshirilganda, ularning qadimgi fors tilidagi turli ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga doir podsho buyro’qlaridan va nutqlaridan iborat ekanligi aniqlandi. Ahamoniylar davri yozuvlarida O’rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to’g’risida ham ayrim ma’lumotlar bor.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida (540-530-522 yillar davomida) O’rta Osiyo viloyatlari qadimgi Fors davlati — Ahamoniylar sulolasi hukmronligi ostiga tushib qoladi. Ular O’rta Osiyoda ikki yuz yilcha hukmronlik qilganlar.

Miloddan avvalgi V-IV asrlar O’rta Osiyo xalqlari tarixi qadimgi yunon tarixshunoslarining diqqat markaziga tushib qolgan. Bu borada O’rta Osiyo xalqlari to’g’risida ma’lumotlar beruvchi Gerodotning “Tarix” kitobi ayniqsa qimmatlidir. Bu muhim hamda dunyoda mashhur manbada Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklar, sak-massagetlar, so’g’dlar va xorazmliklar tilga olingan bo’lib, ularning moddiy madaniyati, urf-odatlarini, dini va tarixi haqida hikoya qilingan. Gerodotning O’rta Osiyo to’g’risidagi ma’lumotlari turli masalalar bilan birga bevosita yunon-fors urushlariga borib taqaladi. Forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari hamda Akes-Amudaryo daryosining suvlaridan foydalanish to’g’risidagi manbalar bundan mustasnodir.

Boshqa bir yunon tarixshunosi Ktesiy Kichik Osiyodagi Knid shahridan bo’lib, u miloddan avvalgi 414 yildan boshlab, Ahamoniylar podshosi Artakserks II saroyida tabib vazifasini bajargan. Ktesiy o’zining “Persika” deb nomlangan

asarining katta bir qismini baqtriyaliklar tarixiga bag'ishlagan. Shuningdek Ktesiy asarida Baqtriyaning shaharlari, uning mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan poytaxti haqida, shu shaharni qamal qilgan Ossuriya podshosi Nin to'g'risida hikoya qilinadi.

Baqtriyaning ossuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to'g'risida yana bir yunon tarixshunosi — Ksenofont ham ma'lumot beradi. Ammo O'rta Osiyoning boshqa shahar va manzilgohlari to'g'risida qadimgi yunon mualliflari asarlarida ma'lumotlar uchramaydi. Mavjud shaharlar ularga noma'lum bo'lgan bo'lsa kerak.

“Avesto”ning eng qadimgi qismlari, ahamoniylar yozuvlari, Gerodot, Ktesiy va Ksenofont asarlari O'rta Osiyo to'g'risidagi yozma manbalarning ilk turlari hisoblanib, ular o'lkamizdagi aholi, viloyatlar, alohida joylar va daryolar nomi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum to'g'risidagi ma'lumotlarni, ahamoniylar podsholarining O'rta Osiyoga yurishlari, qadimgi xalqlar turmushi, dini, madaniyati, qabilalar hayotini yorituvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi

O'rta Osiyo ilk temir davriga oid (mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmi) moddiy madaniyat yodgorliklariga nihoyatda boydir. O'lkada keng ko'lamda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilib, tekshirilgan qishloq va shahar xarobalari qadimiy madaniy o'choqlar hisoblanadi. Quyi Murg'ob, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida, Xorazm va Farg'ona vodiylarida ilk temir davriga oid juda ko'p yodgorliklar borligi ma'lum bo'ldi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklaridan Surxondaryoda Kuchuktepa, Bandixon va Qiziltepa, Qashqadaryoda Sangirtepa, Uzunqir va Yerqurg'on, Zarafshon vohasida -Afrosiyob va Ko'ktepa, Farg'ona vodiysida Dalvarzin, Chust, Boztepa va boshqalar hisoblanadi. Shu davrga oid xom g'ishtdan va paxsadan qurilgan binolar, mehnat qurollari, hunarmandchilik buyumlari hamda boshqa topilmalar O'rta Osiyoda moddiy madaniyat yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Qadimgi ko'chmanchilar - saklarning yodgorliklari Quyi Zarafshon,

Amudaryo, Orol dengizi atrofida, Pomir va Tangritog' hududlaridan topilgan. Ular, asosan, mozor-qo'rg'onlardan iboratdir. Topilmalar orasida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi.

O'rta Osiyo yodgorliklari bo'yicha o'tkazilgan qazilma ishlari natijasida topilgan moddiy manbalar marg'iyonaliklar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, saklar va so'g'dlar tarixini chuqur o'rganishga, shuningdek ularning qo'shni mamlakatlar xalqlari bilan o'zaro munosabatlarini aniqlashga imkon yaratadi.

Arxeologik qazishlar natijasida madaniy, iqtisodiy va harbiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan eng qadimgi shaharlarning xarobalari aniqlandi. Shahar ichkarisidan topilgan turli qurilish qoldiqlari savdo yo'llari yoqasida joylashgan Afrosiyob (Marokanda), Uzunqir, Ko'ktepa, Qiziltepa, Yerqo'rg'on kabi hududlarning qalin mudofaa devorlari bilan o'ralganligidan dalolat beradi.

XX asrning 30-yillarida O'rta Osiyo xududlarida arxeologiya yodgorliklarining keng O'rganilish jarayoni boshlanib, topib tekshirilgan arxeologiya manbalaridan kadimgi jamiyat tarixi, madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarishsh urganshssa foydalanilgan.

40-yillarning oxirlari va 50-yillar davomida ibtidoiy jamiyat va ilk davlatchilik tizimiga oid yodgorliklar O'zbekiston, Janubiy Turkmaniston va Tojikistonda tadqiq kilingan. Ushbu ishlarni S.P. Tolstov, A.P. Okladnikov, B.A. Kuftin, M.Ye. Masson, H.F. G'ulomov, A.N. Bernshtam, V.M. Masson, Yu.A. Zadneprovskiyalar xabarligidagi ekspeditsiyalar amalga oshirgan.

60-70-yillarda A. Askarov, A. Muxdmmadjonov, Islomov, V.I. Sarianidi, O.K. Berdiev, A.3. Vinogradov, M.A. Itina, E. V. Rtveladze, R.X, Sulaymonov va boshka olimlar tomonidan arxeologiya yodgorliklarida keng tadqiqotlar olib borilgan Ushbu ishlarning natijalari taxlil qilinganva tarixiy asarlarda umumlashtirilgan.

Shuni xam aytib o'tish kerakki, qadimshunoslarning tadqiqotlarida maxsus arxeologiya mavzularini yoritish (yodgorliklarning va topilmalarning tavsifi, xronologiya va davrlashtirish, xo'jalik, madaniyat va b.) muzei» ahmiyat kasb etgan.

Sho‘ro davri ilmiy adabiyotlarida jamiyat, boshqaruv va davlatchilik tarixiga yondashishda shy davr mafkurasi talabiga ko‘ra, ishlab chiqilgan sinfiy nazariyadan foydalanilgan. Olimlarning tadkikotlari ushbu goyalar doirasida chegaralanib, nazariy va amaliy jixatdan ularni amalga oshirishga majbur edi.

Ushbu mavzuga bagishlangan adabiyotlarda ibtidoiy tuzumning yemirilishi va sinfiy jamiyatning vujudga kelishi sabablari kuyidagicha kayd kilingan:

- ko‘shimcha (ortikcha) maxsulotniig paydo bulishi;
- ayirboshlashning rivojlanishi:
- ijtimoiy mexnat taksimoti;
- ona urug‘i (matriarxat)dan ota urug‘i (pariarxat)ga o‘tilishi;
- ko‘shni xududiy ypyg‘jamoalarning vujudga kelishi; .
- mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabakalanish;
- ekspluatatsiya (boshqa kishilar mexnati bilan yaratilgan maxsulotni o‘zlashtirish)ning ilk shakllari.

Ushbu ijtimoiy-iktisodiy belgilar davlat vujudga kelishining asosiy omillari sifatida barcha xududlardagi qabila va elatlar tarixi bilan bog‘langan bo‘lib, ilmiy, o‘quv adabiyotlar hamda darsliklarda asosiy nazariya sifatida qabul qilingan edi.

Ma‘lumki, ibtidoiy jamiyat dastlab o‘zlashtiruvchi xo‘jaliklar (termachilik, ovchilik, balikchilik) va neolit-yangi tosh davridai boshlab ishlab chikaruvchi xujaliklar (dexkoichilik va chorvachilik)ga asoslanib rivojlangan. Turli etnografiya va arxeologiya ma‘lumotlariga ko‘ra, ibtidoiy jamoalarning xududiy aloqalari va ijtimoiy - iktisodiy munosabatlari ypyg‘chilik tuzumi xususiyatlari bilan belgilangan. O‘rta Osiyoning kadingi tarixiga tegishli ushbu ma‘lumot lar turli adabiyotlarda o‘z aksini topgan.

Insoniyat tarixida ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning paydo bo‘lishi jamiyatning rivojlanishida tub o‘zgarishlarga poydevor bo‘lgan. Arxeologiya manbalarga ko‘ra, aynan shu davrdan boshlab, kushimcha maxsulotning tuplanishi tufayli ayirboshlash rivojlangan. Boskichma-boskich xududiy kuipshchilik jamoasi vujudga kelib, axoli aralash (bir xududda turli ypyg‘ namoyandalarishshg) joylashuvi jarayoni boshlangan. Arxeolog olimlar neolit, eneolit va bronza

davrlarida kadimgi jamiyatning ijtimoiy-iktisodiy va madaniy rivojlaningida katta o'zgarishlar sodir bo'lganligini turli dalillar asosida keng yoritganlar. O'rta Osiyo ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda S.P. Tolstov, Ya.F. G'ulomov, V.M. Masson, A.A. Asqarov. U.I. Islomov, V.I. Sarianidi va boshqa qadimshunoslarning ilmiy tadqiqotlari muxim ahamiyatga ega Ushbu tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoda ibtidoiy jamiyatning yemirilishi sabablari va sharoitlari aniqlangan. Ilmiy adabiyotlarda kiltirilgan xulosalarga ko'ra, mil. avv. III-II ming yilliklarda sun'iy sugorishga asoslangan dehqonchilik, xunarmandchilikning keng suratda rivojlanishi va metallchilikning kashf etilishi ishlab chikarish jarayoni va ijtimoiy-iktisodiy munosabatlarning taraqqiyotiga ta'sir qildi. Bronza davri tarixiy jarayonida sodir bo'lgan o'zgarishlar tarixshunoslikda quyidagicha qayd kilingan:

- axoli sonining oshib borishi natijasida kadimgi kabilalar tomonidan yangi yerlarni uzlashtirilishi, suv manbalari va xom ashyo konlarini kidirish natijasida keng xududlarda joylashishi;
- bronza davrida maxsus xunarmandchilik ishlab chikarishning vujudga kelishi;
- xunarmandchilik va kishlok xo'jalik maxsulotlaridan mol ayirboshlash maqsadida foydalanish;
- axolining ijtimoiy tabakdlanishi;
- ayrim katta oilalar va patriarxal urug' jamoalarning ramzlari-tamg'alar va muxrlarning paydo bo'lishi;
- qadimgi qabrlardan topib tekshirilgan buyumlarning son-sifatiga ko'ra (metall idishlar va yaroglar, sopol idishlar, kimmat toshlardan yasalgan marjoy va metall tamg'alar) boy jamoa vakillarining mavjudligi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlarning taxlil i sho'ro davrida chop etilgan turli ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Lekin xususiy mulkchilik va ijtimoiy tabakalanishning qay darajada rivojlanganligi yetarli darajada yoritilmagan.

O'rta Osiyoning turli xududlaridagi qadimgi axoli bir xilda taraqqiy topgan emas. Ayniksa, bronza davrida iktisodiy va madaniy jihatdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan kabilalar bir-biridan ajralib turgan. Ularning jamiyati boshkaruv tizimida uziga xos xususiyatlar mavjud bulgan. Arxeologik

tadkikotlar natijasida mintakdning janubiy viloyatlaridagi utrok kishloklarda katta patriarxal oila jamoalariga tegishli bulgan kup xonali uy-joylar topib tekshirilgan, kuyi Zarafshon voxasida-yirik kulba qoldiklari (Zamonbobo), Xorazmda shu davr uy-joylari yarim yerto‘lalardan iborat bulgan- ligi aniklandi. Bu boradagi arxeologik ma‘lumotlar ijtimoiy-iktisodiy hayot darajasining turlicha bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, ijtimoiy boshkaruv tizimi xam bir-biridan farqqilgan.

V.M. Massonning ta‘kidlashicha, dexkonchilik neolit davri “inkilobi” sifatida o‘trok hayot va yangi iktisodiy munosabatlarga asos solib, urugchilik jamiyatining tashkiliy funksiyalarini avvalgi davrlarga nisbatan ancha murakkablashtirgan. Mexnat jarayonlarini (ayniksa ziroatchilikdagi yerga ishlov berish, usimliklarni ekish, xosilini yirib olish) rejalashtirish, tashkillashtirish paytida ypyg‘oqsoqollarining o‘rni va obru-e‘tiborini kuchaytirgan, ammo dastlabki mulkiy tengsizlik past darajada bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarda muxim axamiyat kasb etmagan.

Bronza metallurgiyasining vujudga kelishi ka kuptarmokli xunarmandchilikning rivojlanishi jarayonlari ijtimoiy tabakalanishni kuchaytirgan. Lekin, faqat arxeologiya materiallari orkali kadimgi ijtimoiy tarixni tadkik etish o‘ta murakkab vazifa xisoblanadi. Shuning uchun ham O‘rta Osiyoning kadimgi ijtimoiy tizimini o‘rganishda Old Osiyo ziroatchilik jamiyati tarixi bilan taqqoslash qo‘llanilgan, chunki ushbu tarix yozma manbalar asosida keng yoritilgan.

O‘rta Osiyodagi ilk davlatlar “sinfiy jamiyat”, quldorlik davlatlar” sifatida izoxlangan, S.P. Tolstovning fikriga kura, ushbu davlatlar shakllanishining asosiy sabablaridan biri - yirik sug‘orish tizimining barpo etilishi bo‘lib, irrigatsiya ishlarini amalga oshirish maksadida kullarning mexnatidach foydalanilgan. Qiyoslash uchun o‘tgan asrning 70-80- yillarida Janubiy O‘zbekistonning tog‘ oldi vohalarida 3-5 km uzunlikdagi kadimiy kanallarning izlari toshb tekshirilgan. Bunday kichik kanallarni kishlok jamoalarining ozod vakillari xam kazib o‘tkazishi mumkinligiii faraz qilish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Aholi sonining oshib borishi kadimgi kabilalar tomonidan yangi yerlarni

uzlashtirilishiga qanday ta'sir etgan?

2. Suv manbalari va xom ashyo konlarini qidirish natijasida keng xududlarda aholining joylashishi qanday yuz bergan?
3. Bronza davrida maxsus xunarmandchilik ishlab chiqarishing vujudga kelishini izohlang.
4. Hunarmandchilik va kishlok xo'jalik maxsulotlaridan mol ayirboshlash maqsadida foydalanish qanday yuz bergan?
5. Ayrim katta oilalar va patriarxal urug' jamoalarning ramzlari-tamg'alar va muxrlarning paydo bo'lishini tavsiflang.

2-mavzu: O'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari.

Reja:

1. O'zbekistonda davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.
2. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.

Tayanch so'zlar: "ilk sinfiy jamiyat", "kuldorlik tuzumi", "kuldorlik davlatlari", "O'rta Osiyodagi quldorlik formatsiya" nazariyasi, mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tabakalanish, ekspluatatsiyaniig ilk shakllari.

O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli

XX asrning 30-yillaridan boshlab O'rta Osiyoda davlatchilik shakllanishining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish muxim masalaga aylanib, mintaqadagi ilk davlatlar kanday ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xarakterda bo'lgan, degan savol yuzaga kelgan. Ammo tarixiy manbalar kamligi tufayli bu savolga javob berish u paytlarda ancha mushkul bo'lgan.

Qadimgi Sharq davlatlarida sun'iy sug'orishga asoslangan dexqonchilik murakkab sug'orish inshootlarni amalga oshirishni talab qilganligini inobatga olib, olimlar O'rta Osiyoda xam shunga yaqin jarayonlar sodir bulgan va mintaqada ko'pchilik axoli majburiy ravishda davlat tomonidan irrigatsiya kanallarining

kurilishiga jalb etilgan, deb xulosalar chiqarganlar. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, dastlab bu fikrni S.P. Tolstov rivojlantirgan, keyinchalik M.M. Dyakonov xuddi shu sabablarni davlatchilikning shakllanishidagi asosiy omil sifatida ko’rsatib o’tgan.

O’rta Osiyoning kadimgi tarixiga tegshili “ilk sinfiy jamiyat”, “quldorlik tuzumi”, “quldorlik davlatlari” kabi tushunchalar keng ishlatila boshlandi. O’tgan asrning 60-yillariga kelib, “O’rta Osiyodagi quldorlik formatsiya” nazariyasi baxs-munozaralarga aylangan. Ayrim tarixchilar Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixi ta’siri ostida yaratilgan ushbu konsepsiyaga qarshi chiqqan. Tadqiqotchilar O’rta Osiyoning qadimgi ijtimoiy munosabatlariga xos xususiyatlarini inobatga olib, mahalliy qullar uy cho’risi va xizmatkorlardan iborat bo’lganligini hamda qadimgi jamiyat tarkibi yetarli darajada o’rganilmaganligini uqtirganlar.

XX asrning 30-50-yillarida O’rta Osiyoning turli xududlarida kadimgi dexdonchilik madaniyati keng o’rganilmagan edi (Qashkadaryo, Surxon voxalari, janubiy Tojikiston, quyi Murg’ob). Darxaqiqat, mintaqa xududlarida o’troq axolining joylashuvi va suniy sug’oriladigan yerlardan qishloq xo’jaligi maqsadida foydalanilish darajasi noma’lum bo’lgan.

Sho’ro davrida mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish mavzusini o’rganish, jumladan, ushbu voqealar qaysi biri birlamchi bo’lib vujudga kelgan, degan savol xam dolzarb muammoga aylangan edi. V.M. Masson va I.M. Dyakonovlar mulkiy tengsizlikni birlamchi omil sifatida talkin qilganlar. Etnografiya adabiyotlarida “sinfiy jamiyat” paydo bo’lishiga ijtimoiy tabakalanish jarayoni asos bo’lgan deb xulosalar chikarilgan. Ayrim shaxslar tomonidan ijtimoiy mansablarni egallash jamoadagi ortiqcha maxsulot va xususiy mulkni egallashga intilishlari bilap bog’langan. Sho’ro davri tarixchi va etnograflarining fikrlariga ko’ra, ijtimoiy mehnat taqsimoti vujudga kelishi bilan tashkiliy-boshqaruv faoliyati ishlab chikarish faoliyatidan ajralib chikadi va ijtimoiy mansablarni egallagan shaxslar uchun jamoadagi ishlab chikarilgan maxsulotni uzlashtirishga keng imkoniyatlar yara tiladi, shu asosda ekspluatatsiyaniig ilk shakllari vujudga kelgan. Demak, shu davr nazariyalariga binoan, ibtidoiy

jamiyatning yemirilishi va ilk davlatlarning shakllanishi kuyidagicha rivoj topgan: mulkiy tengsizlik -ijtimoiy tabakalanish -ekspluatatsiyaniig ilk shakllari va qulchilik- merosxo‘r urug‘ -qabila oksuyak zodagonlarining paydo bo‘lishi - urushlar va xarbiy yurishlar natijasida urug‘ yo‘lboshchilarining moddiy boyliklarni ko‘paytirishga intilishi ijtimoiy sinflarning vujudga kelishi xukmron sinflarning manfaatlarini ximoya kilish zarurati ijtimoiy boshkaruvning siyosiy xokimiyatga aylanishi. Markscha nazariyaga kura, ezuvchilar va eziluvchilar sinflarga ajralishi natijasida, ular o‘rtasida kurashlar keskinlashgan va ushbu karama-karshilik okibatida tarixiy saxnada zo‘ravonlik, ezuvchi apparat-davlat paydo bo‘lgan. Bunday yondashuv O‘rta Osiyo tarixshunosligida ham asosiy nazariya sifatida qabul kilingan edi.

Fikrimizcha, davlat o‘zaro nizolar va kurashlarga asoslangan sinfiy jamiyat maxsuli degan g‘oya ko‘pdan-ko‘p savollarga javob bermagan, jumladan, O‘rta Osiyoning qadimgi tarixida ilk davlatlarning ishlab chiqarish faoliyatida qullar va ozod jamoa a‘zolarining mexnati kanday urin tutgan, degan savol xam uz yechimini topmagan.

“Avesto” ma’lumotlariga kura, O‘rta Osiyo kadimgi jamiyatidagi kulchilik shakllaridan biri “uy kulchiligi” bulib, kullar toifasi manbada “vaysa” deb ataladi. “Vaysa” atamasining mazmun-moxiyati turli adabiyotlarda kurib chikilgan bulib, mil. avv. VII-VI asrlarda O‘rta Osiyoning o‘troq ziroatchilik viloyatlarida “uy qulchiligi” keng tarkalgan deb faraz qilingan.

Jamiyatning erkin axolisidan kelib chiqqan xonavayron va kashshok jamoa a‘zolari turli tarixiy davrlarda ma’lum bulgan. Ammo kadimgi O‘rta Osiyoda ularning soni, iktisodiy xayotdagi urni va axamiyati (misol uchun, xunarmandchilik, binokorlik va kishlok xujalik ishlarida), bu jarayonlar to‘risida ilk yozma manbalarda anik ma’lumotlar deyarli yuk, Shuning uchun xam ushbu savolga anik javob topish juda murakkab bulib, mazkur masala tarixshunoslikda deyarli o‘rganilmagan.

O‘rta Osiyo qadimgi ijtimoiy munosabatlarini o‘rganishda yozma va arxeologik manbalarning mavkei muxim bulsa xam, mintakada Kadimgi Shark va

Yunonistondagi singari kullarni xususiy mulkka aylantirish, kullarni mulk sifatida sotish, sotib olish, qo‘l mexnatidan ishlab chikarish jarayonida keng foydalanilganlik to‘g‘risida ma‘lumotlar deyarli yuk. Shuning uchun xam o‘rta Osiyoda ijtimoiy munosabatlar kadimgi dunyo klassik kuldorlik jamiyatlaridagi tarixiy vaziyatdan ancha fark kilganligiga shuro davri tarixiy adabiyotlarida yetarli darajada e‘tibor berilmagan.

Shu davr tadkikotlarida kadimgi shaxarlarning shakllanishi mavzusi dolzarb axamiyatga ega bulgan. Ma‘lumki, shaxarlar va davlatlarning paydo bulishibu bir-biri bilan uzviy borlik jarayondir. Olimlar shaxarlarni yuzaga keltirgan omillarga izox berdilar. Ilk shaxarlarning shakllanishida - dexkonchilik xujaliginyng rivoji, metallning kashf etilishi, xunarmandchilik va savdo-sotikning rivojlanishi muxim omillar xisoblanadi. Yirik manzilgoxlar va ilk shaxarlar xunarmandchilik, savdo-sotik markazlari va boshkaruv tizimlari joylashgan punktlar, ma‘muriy-xududiy markazlar sifatida talkin kilingan.

Sho‘ro davri tarixshunosligida O‘rta Osiyo xududida ilk davlatlar vujudga kelishining tarixiy sanasi va davrlashtirish masalasi keskin baxslarga sabab bo‘lgan. Ba‘zi olimlar O‘rta Osiyoda axamoniylar boskiniga kadar yirik davlatlar rivojlanmagan, mintaqada davlatchilik tizimi axamoniylar davrida paydo bulgan, deb ta‘kidlaganlar. Lekin qadimshunos olimlarning ko‘pchiligi bunday xulosani inkor etib, o‘rta Osiyoda davlatchilikning paydo bo‘lishi axamoniylardan ancha oldin, kadimiy davrlarga borib takaladi degan fikrni bildirishgan. Asosiy baxslar “Avesto”da tilga olingan “Aryoshayana” siyosiy birlashmasi. “Katta Xorazm” va Qadimgi Baqtriya davlatlari masalasi bilan bog‘langan edi.

Ba‘zi Fapb tadkikotchilari (F. Altxaym, V.B. Xenning, I. Gershevich) “Katta Xorazm” davlatini Kopetdog‘ yonbag‘rilarida yoki Marv va Xirof atrofida joylashtirganlar (ushbu xududlar xorasmiylarning ilk vatani sifatida taxmin kilinganlar. I.V. Pyankov o‘rta Osiyoning janubidagi “Katta Xorazmning xududiy chegaralarini ancha kengaytirib, ushbu davlat Eronning Mashxad va Nishopur voxalarini xam o‘z ichiga olgan, deb ta‘kidlagan. M.X. Vorobeva bu nazariyaga qarshi bo‘lib, xorazmliklar janubiy Turkmaniston yerlaridan quyi Amudaryoga

ko'chib kelmaganlar, Xorazm davlatining chegaralari ancha keng bo'lib, O'rta Amudaryodan boshlab, Orol dengizigacha xududlarni uz ichiga olgan, deb yozgan. Ushbu fikrni ko'llab-kuvvatlash mumkin, xuddi shu maxalliy axoli amirobodliklar Xorazm voxasining markazida xujalik yuritib, keyinchalik "xorasmiylar" nomini olgan

"Katta Xorazm" davlati vujudga kelishi davri xususida xam turli fikrlar mavjud. Jumladan, M.A. Itina bu davlatning mil. avv. VI asr boshlarida vujudga kelganligini ta'kidlasa, O.A. Vishnevskaya va Yu.A. Rapoportlar mil. avv. VII — VI asrlar chegarasida vujudga kelgan deb fikr yuritganlar.

Dastlab, Baodriya davlati xakidagi masala xam baxsli edi XX asrning 70-80-yillarida arxeologlar Kadimgi Baqtriya xududlarida ilk temir davriga oid ko'p sonli uy-qo'rg'onlar, kal'alar va shaxarlar koldiklarini topib tekshirdilar. Natijada, Qadimgi Baqtriya davlati tarixi yangi ma'lumotlar asosida o'rganildi.

Sho'ro davrida chorvador-ko'chmanchi qabilalarning tarixini o'rganishga xam keng e'tibor karatilgan. Bronza davridan boshlab chorvador kabilalar mintaqaning tog'oldi xududlarida va dashtlarida keng tarqalgan. Ularda uziga xos iktisodiy va ijtimoiy tuzum rivojlangan. Slimlar kuchmanchilardagi boshkaruv va siyosiy tizim jarayonlarini urganishda dastavval yozma manbalarga e'tibor berganlar. Kuchmanchilarning siyosiy birlashmalarga uyushganliklari to'g'risida yunon tarixchisi Ktesiyning saklar malikasi Zarina o'rta Osiyoning janubida o'z xukmronligini Uriatish uchun Midiya kushinlari bilan jang kilganligi turrisidagi xabarlari dalolat beradi. Axamoniylar podshosi Kir II ga massagetlar malikasi Tumaris karshi chikkdn. "Avesto"da O'rta Osiyoning kuchmanchi qabilalari "tur" va "danu" deb ataladi. Tadkikyutchilarning ta'kidlashicha, ular kuchmanchilar orasida xarbiy-siyosiy kabina uyushmalari vujudga kelgan davrlarda yaiyuganlar. Dastlabki kuchmano'shlarning ijtimoiy va siyosiy tarixini urganishda Quyi Sirdaryodagi mil. avv. IX-VIII asrlarga oid Tagisken makbaralarida topib tekshirilgan ma'lumotlar muxim axamiyat kasb etdi. Tagisken kabrlarida kuchmanchilarning sardorlari va oksokollari dafn etilgan.

Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida ilk davlatchilik tarixi

muammolarini o'rganish va taxlil qilish dolzarb vazifaga aylandi. Mintakaning bir kator respublikalarida utmish vokealarning yangicha konseptual bayoni Markaziy Osiyoning kadimgi tarixini keng kulamda kayta kurib chikish, xolis va xakkoni yoritishga aylanib ketdi. Tarixchilarda mintaka xalklarining xakkoni tarixini yaratish uchun chinakam tadkikotlar olib borish xamda yangi aniq tarixiy umumlashma tadkikotlarga mo'ljol olish imkoniyatlari paydo buldi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab ba'zi tarixchilar va tarixiy mavzularga murojaat eta bopsha- gan boshka gumanitar soxa vakillari ilgarigi uslubiyatdan voz kechishni xech kandy ilmiy yondashuvni tan olmaslikdir, deb tushundilar, murakkab tarixiy masalalar tadkikotchi kandy xoxlasa, shunday yoziladi, degan akidaga amal qildilar. Markaziy Osiyo doirasida tarixchi olimlar o'rtasidagi alokalar axyon-axyonda ko'zga gashlanadigan bulib koldi xamda kadimgi tarixga murojaat qilish quloch ochdi va bu kupincha sof ilmiy muammolarni urganish doirasidan chetga chiqa boshladi.

Mustakillikning dastlabki yillarida qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik masalasini o'rganishda yangicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmaganligi tufayli, bu borada sho'ro davri nazariyalari turli nashrlarda o'z axamiyatini yo'qotmaganligi tabiiy edi. Shuning uchun xam ilk davlatchilikka mansub xususiyatlar an'anaviy izox topdi (jamiyat ikki karama-karshi sinf - ezuvchi kuldorlar va eziluvchi kullar sinfiga bulingan, kul bir yoki bir necha xujayinning shaxsiy mulki xisoblangan, kul ishlab chikarish vositasiga ega bulmagan), shuningdek, Baktriya, So'g'd, Xorazm "yirik kuldorlik davlatlar" sifatida yoritildi.

XX asr 90-yillarining boshlarida chop etilgan ayrim risolalarda kuyidagi xulosalar mavjud: "Eramizdan oldingi II-I ming yilliklarda, bronza davriga ka dam kuygan Xorazmda yangi shaxarlar izchil paydo bula boshladi. Eramizdan oldingi VIII asrga kelib, Xorazm davlati uzining siyosiy va iktisodiy rivojlanishida yukrri darajaga kutarildi. Kupgina kushni mintakalar kabilalari, chunonchi, farfirlar, surdiyonlar, arslar (Xirof), eronlar uning ximoyasida panox topa boshladilar. Shunday kilib. katta-kichik kabila va elatlarning erkin qo'shiluvi natijasida Xorazm xududlari tez kengaya bordi Ammo na arxeologiya ma'lumotlari, na

yoza manbalar ushbu xulosalarni tasdiklamaydi.

Albatta, birorta muallifga izlanishlar olib borish, o'z fikrini bildirish, farazlarni o'rta tashlash va turli muammolarni taxlil qilish man etilmaydi, ammo Xorazm misolida mil. avv. II ming yillikdan boshlab ushbu xududda shaxarlarning va davlatlarning rivojlanishi arxeologii jixatdan uz isbotini topmagan. Yukorida keltirilgan xulosalar ilmiy jixatdan baxsli masaladir.

Oliy va O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun yaratilgan ko'llanmalarda O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish sabablari quyidagicha yoritilgan: "Jamoalarning ixtiyorida ortiqcha mulkning xosil bo'lishi va jamoalararo maxsulot ayirboshlashning vujudga kelishi xal kiluvchi o'rin tutdi. Urug' jamoalari o'rtasida o'zaro janjal, to'qnashuv va xatto urushlar darajasiga borib yetardi. Bu to'qnashuvlar oqibatida yengilgan oila va urug' jamoaning boyliklari g'oliblar qo'liga o'tardi". Ushbu xulosa mualliflarining fikrlariga ko'ra, yengilgan kishilarni asir va qulga aylantirar edilar, asta-sekinlik bilan xususiy mulk rivojlanib, shu tarika "jamiyatda mulkdorlar, xujayinlar-kuldorlar, tobelar, mazlumlar-qullar va zo'rlikka tayanuvchi kurollangan kuch, ya'ni ibtidoiy davlat kurinishi elementlari vujudga keladi. Demak, mualliflarning ta'kidlashicha, davlat karama-karshi sinflarning kurashiga asoslangan, ezuvchi sinflarning manfaatlarini ximoyalash maksadida, zuravonlik siyosiy apparat sifatida paydo bo'lgan.

Qadimshunos olim A.A. Asqarovning ta'kidlashicha, qadimgi O'rta Osiyoda qulchilik munosabatlari klassik shaklda rivoj topmagan, mintakada ushbu munosabatlar "patriarxal qulchilik xarakterga" ega bo'lgan. A.A. Asqarov va T.Sh. Shirinov ilk shaxarlar va davlatlar o'rtasidagi aloqalarni qayd etib, ilk shaxarlarning arxeologii belgilarini ko'rsatib berdilar.

A.A. Asqarov tomonidan kadimgi tarixning asosiy xususiyatlari va davlatchilikning vujudga kelishi masalasi taxlil kilingan.

Ushbu masalaga murojaat etgan S.S. Qudratov muammoga yangicha yondashishga xarakat kilib: "Sovet davri tarix fanida davlat sinfiy jamiyatning maxsuli deb ta'kidlanardi xamda bu jarayonning ibtidoiy davrda bo shla nishi mumkinligi inkor etilardi" degan xulosa chikardi. Ammo kadimshunos olimning

risolasida o‘z aksini toigan keyingi fikr-muloxazalari sho‘ro davrida ko‘llangan sinfiy nazariyani to‘liq takrorlagan Bunday yondashuv tabiiy bir xol bulgan, chunki XX asrning 90-yillarida ilk davlatchilik tarixini yaratishning anik ilmiy-uslubiy yo‘nalishlari xali ishlab chi kilmagan edi.

Biz taxlil kilayotgan S.S. Qudratovning risolasidagi “Markaziy Osiyo ilk davlatlari paydo bulishining shart-sharoitlari va omillari” deb nomlangan bobida kuyidagicha xulosalar mavjud:

- qo‘shimcha maxsulot bir kishi tomonidan ishlab chikilib, boshka kishi tomonidan o‘zlashtiriladi, n’ni ekspluatatsiya munosabatlari yuzaga keladi;
- qo‘shimcha maxsulotning yuzaga kelishi bilan xususiy mulk shakllana boshlaydi;
- o‘zlashtirilgan xususiy mulk paydo bulishi bilan ekspluatatsiya munosabatlariga yul ochiladi;
- qo‘shimcha maxsulot va xususiy mulkning poydevori bulishi bilan jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tengsizlik yuzaga kela boshlaydi;

Natijada, S.S. Qudratov kuyidagi yakuniy xulosani chikargai: “Ijtimoiy sinflarning paydo bulishi ibtidoiy davrni sinfiy davrdan ajratuvchi chegara kisoblanadi. Ijtimoiy va mulkiy tengsizlik jamiyatda qarama-qarshilik va nizolarni keltirib chikaradi. Jamiyatning yukrri toifa kishilari o‘z imtiyozlari va boyliklarini jamiyatning oddiy a‘zolari taxdididan ximoyalashga zarurat sezadi. Ijtimoiy ishlab chikarishga va u ni taksimlashga bulgan xuquq urug‘ va qabila boshliqlariga o‘z atroflariga shaxsiy qo‘riqchilar, maslaxatchilar va shu kabilarni tuplash imkonini byoradi, ya’ni davlatning ibtidoiy kurinishlari shakllana boshlaydi”.

Ushbu xulosalar S.S. Qudratovning boshka makolalarida xam o‘z aksini topgan. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, kadimshunos olim kiska bo‘lsa xam kator muxim muammolarni taxlil kilishga xarakat kildi. Shaxar-davlatlarning paydo bulishi, podsholiklarning vujudga kelishi, ilk davlatlarning shakli va boshkaruv tizimi kabi savollar, shular jumlasidandir.

Tadkikotchi III. Shaydullaev ilk davlatlarning arxeologik belgilarini ishlab chikishga xarakat kilib, shaxarlar va davlatlarning paydo bulishi va rivojlanishi

jaraenini kuyidagi davrlarga bulgan:

- shaxar - davlatlar (“nom” tipidagi davlatlar markazi);
- shaxar -xududiy davlat markazi;
- shaxar - markazlashgan davlatlar, imperiyalar davrida.

Ushbu xulosalarga I. M. Dyakonov va V. A. Yakobsonning nazariyalari ma’lum darajada ta’sir kilgan. Mashxur nshrkshunos olimlarning goyalaridan ilk davlatlar tipologiyasini taxlil kilish jarayonida S.S. Qudratov xam foydalangan.

Shu urinda Sh. Shaydullaevning kuyidagi fikriga e’tibor karatish lozim: "Arxeologiya fanida ilk sinfiy munosabatlar, ilk shaxarlarning arxeologik belgilari yoki sivilizatsiyalar masalasi keng yoritilgan bulsada, ilk davlatlar va ularning arxeologik belgilari birinchi marotaba muxokamaga qo’yilmokda”. Ammo avvalgi yillarda, ya’ni V.M. Massonning 1976 yilda chop etilgan “Qadimgi jamiyatlarning iqtisodiyoti va ijtimoiy tuzumi” monografiyasining 185-betida keltirilgan 23-jadval “Ilk sinfiy jamiyat shakllanishining arxeologik sxemasi” deb nomlangan edi. Unda Sh. Shaydullaevning ilk davlatlarning arxeologik belgilari jadvali singari o’xshashliklar mavjud. Misol uchun, yodgorliklar (manzilgoxlar) sonining oshishi, xasha matli (boy) va oddiy uylar, manzilgoxlarning ierarxiyasi, sun’iy sugorish (kanallarning koldiklari) va ekinlar turlarining koldiklari, xarbiy istexkomlar, boy va oddiy kabrlar, yozuv va xk.

V.M. Massonning jadvalidan Sh. Shaydullaev xabardor bo’lmagan bo’lishi mumkin va bu borada biz olimni tanqid qilish maqsadida emasmiz. Lekin mustaqillik yillarida Markaziy Osiyoda. jumladan, O’zbekistonda nashr etilgan ayrim makola va risolalarda xam oldingi davrlarda amalga oshirilgan ilmiy tadkikotlarga iktiboslar berish zarurati ayrim xolatlarda unutilmokda. Tarixshunoslikka, taqqoslash va kiyoslashlarga asoslanish yovdashuvi chetlab o’tilmokda. Bunday yondashuv turli muammolarni taxlil qilishga va yoritishga xizmat kilmaydi.

Qadimshunos olim A. Anorboev Sh. Shaydullaevning makolasini tankldiy taxlil kilib, bir kator takliflar va mulohazalar ichida qadimgi Baqtriya va Xorazm davlatlarining geografik joylashuvi, poytaxt shaxarlari to’grisida Sh. Shaydullaev

“biron-bir suz aytmagan”, - deb mazkur makolaning muallifi “bu davlatlarning xronologik davri, geografik joylashuvi xakidagi keyingi ma’lumotlardan tu lik xabardor emas”- degan xulosa chikargan. Bu borada o’rta Osiyoda ilk davlatchilikning paydo bulishi, jumladan, Kadimgi Baktriya va Xorazm davlatlari tugrisida, tarixiy adabiyotlarda turli yanga ma’lumotlar uz aksini topgan. Ulardan foydalanish va tankidiy kurib chikish yangi fikr-muloxazalarga asos bulishi mumkin.

A. Anorboev kadimgi Farg’onada ilk davlatchilik masalasiga bagishlangan B.X. Matboboevning maqolasiga xam o’z munosabatini bildirib, kadimgi Farg’onada davlatchilikning paydo bulishini sug’orma dexkonchilikning rinojlanishi, kushimcha maxsulotning ortishi, o’zaro kelishmovchiliklar va urushlar natijasida asirlarni qo’lga olinishi, ularni majburiy ishlarga tortilishi, sinfiy tabakalanishning kuchayishi kabi omillar bilan bogladi. Ushbu koyalar turli kurinishida sho’ro davri tarixshunosligida xam ustunlik qilgan. 1998 yilga qadar O’zbekistonda davlatchilik tarixi buyicha olimlar tomonidan keng taxlil kilingan yakuniy yagona konsepsiya ishlab chikilmagan edi. Keyinchalik konsepsiya loyixasi ishlab chiqilib chop etildi. Shu urinda ta’kidlash joizki, O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bir gurux tarixchilar bilan 1998 yildagi mulokoti chog’ida xamda tarix va davlatchilik mua.mmolariga bagishlangan asarida bildirilgan fikrlari mazkur masalaning yangicha karashlar va yondashuvlar asosida yoritish imkonini yaratdi.

So’nggi yillarda chop etilgan bir qator adabiyotlarda kadimgi tarix “sivilizatsiyaviy yondashuv” tushunchasida talqin qilinib, dastlab ilk davlat va kadimgi xuquq o’zaro bir-biriga boglik jarayonlar sifatida urganila boshlandi. XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmida boshlangan tadqiqotlarning natijalari XXI asr boshlarida chop etilgan nashrlarda uz aksini topdi.

Qadimshunos olim E.V. Rtveladzening bir kator makola va asarlarida O’rta Osiyoda kadimgi davlatchilikning paydo bulishi va rivojlanishi, davlatlarning turlari, xukmdorlarning unvonlari va xarbiy ma’muriy mansablari to’g’risidagi ma’lumotlar o’z aksini topgan. Bu karashni kompleks yondashuv deb baxolash

mumkin, chunki u davlatchilik va boshkaruv tizimini o'rganishning kup jixatlarini kamrab olgan.

Qadimshunoslarning fikrlariga ko'ra, O'zbekiston xududida ilk davlatchilikning shakllanishi mil. av. II minginchi yillikka oid bo'lib, dastlabki davlatlar "nom" turida (ya'ni mudofaa devorlari bilan uralgan shaxdr va uning kishlok xujalik atrofi) "shaxar-davlatlar" yoki "voha-davlatlar" dan iborat bo'lgan.

T.H Shirinovning ta'kidlashicha, o'zbek davlatchiligi tarixi mil. avv II ming yillikda boshlanib, uzluksiz tadrijiy tarakkiyot xozirgi kunga kadar yetib kelgan. Azamat Ziyo asarida x,am shunday yondashuv mavjud. Boshka mualliflar kadimgi davlatchilik davrini "Uzbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi tarixi" sifatida yoritadilar. E.V. Rtveladze mintaqada ilk sivilizatsiyalarning rivojida maxdliiy axali va xalklar migratsiyasi (kuchib kelishi) natijasida madaniy va etnik sintezi (qo'shilishi) xususiyatlariga e'tiborini qaratgan. Ilk davlatchilikning shakllanishiga bunday yondashuv "sinfy" nazariyaga zid bulib, ilgarigi ilmiy adabiyotlar, darsliklar va o'kuv qo'llanmalarda ilk davlatlarning shakllanishida mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tengsizlik, ekspluatatsiya shakllari, jamiyatning bir-biriga dushman sinflarga bulinishi kabi omillar asosiy sabab bulgan degan g'oya dan voz kechishga xizmat kiladi. Xakikatdan xam, turli tarixiy ma'lumotlar ilk davlatchilikka utishda "sinfy" nazariyadan farkli ravishda boshkdcha tarixiy vaziyatni kursatmokda. Demak, ilk davlat uyushmalarining ilab chiqarish jarayonida dastlab ozod jamoa vakillarining mexnati muxim urin tutganligi turrisidagi nazariyani tan olishga to'g'ri keladi.

Adabiyotlarda mavjud yana bir xulosa shundan iboratki, qadimgi Sharkda fakat davlatchilik xokimiyati va siyosiy institutlar shakllangandan sung, turli iqtisodiy va siyosiy sabablarga kura, "kushimcha maxsulot va boyliklar orttiriladi", "ayrim to'q, oilalarning obru-e'tibori, ijtimoiy o'rni baland bo'lib, boy-badavlat kishilarning ajralib chikishiga sabab buladi". Shu bilan birga, jamiyatda kdshshok ijtimoiy guruxlar paydo buladi, boskinchilik urushlari natijasida asirlar va kullarning mikdori usib boradi. Bu jarayonlar tufayli quldorlik amal kilayotgan davlatlar jadal rivojlanadi. Ammo turli mintakalarning ilk davlatlariga turlicha

xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlar xos bulganligini inobatga olish lozim. O'rta Osiyoning kadimgi jamiyatida sinflar paydo bulib, davlatlarning vujudga kelishiga asos bulgan, degan nazariya (ya'ni davlat uzaro nizolarga asoslangan sinfiy jamiyat maxsuli g'oyasi) anik isbotini topishi kerak. Turli ma'lumotlarga kura, ibtidoiy jamiyatning yemirilishi paytida xususiy mulkchilik, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik ommaviy ravishda jadal ri vojlanmagan.

Ushbu masalani fakat arxeologiya ma'lumotlariga tayangan xolda Urganish uta mushkul bulib, Urta Osiyo tarixiga tegishli ilk yozma manbalar, davlat tizimiga Utish boskichida va ilk davlatlar davri iktisodiy xaetida erkin jamoatchilarning yoxud kullarning mexnati ishlab chikarnshni rivojlantirayotgan asosiy kuch bo'lgan, degan savolga javob topish murakkab vazifalir.

I.V. Pyankov "Avestoda keltirilgan "vira", "vaysa" va "pariyatar" atamalarini "kul" ma'nosi bilan bog'laydi. Olimning fikriga ko'ra. "vira"lar ypyg' jamoalari kullari, "vaysa"lar — uy-oila kullari bulgan. Adabiyotlarda mavjud ma'lumotlar buyicha "uy kuli" "vaysa"lar oila jamoasi erkin a'zolari bilan "umumiy tom ostida" (uy-joyda) yashaganlar va jamoaning "kichik" vakillariga aylanganlar.

XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlari ilmiy adabiyotlarida ilgarigidek, Urta Osiyoda axamoniylargacha bulgan davrlarda kuyidagi uchta davlat uyushmalari rivojlanganligi tugrisida suz yuritildi: Aryoshayana (Aryonala Vaychax)-"Avesto"da viloyatlarning siyosiy uyushmasi ("daxiyusasti"), Arenam Vayjo -bu xam "daxiyusasti" yoki uning markazi Urta Osiyoning janu- biy xududlarida bulgan "Katta Xorazm" yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati, nixoyat, qadimgi Baqtriya davlati.

Sunggi yillarda bu masalani I.V. Pyankov maxsus taxlil kilib Aryoshayana uyushmasi ni "kaviylar" (kayyoniyalar) sulolasi bilan bog'ladi. Tadqiqotchi Aryoshayananing xududiy markazini Baktriya tashkil kil gan, deb xulosa chiqargan. Bu xulosa baxsli bulib, uni faraz sifatida kabul kilish mumkin, xolos. T. Shirinovning ta'kidlashicha, Vaktriya va "Katta Xorazm", "osiyocha ishlab chikarishta" asoslangan davlatlar bo'lib, ularning poydevoriga bronza davrining

“ilk sinfiy jamiyati” asos solgan

Mustakillik yillarida xam ilk davlatchilikka bag‘ishlangan ko‘pdan-ko‘p mavzular Fapb tarixshunosligida va shuro davri adabiyotlarida yoritilgan muammolar bilan bog‘landi. XIX asrning oxirlaridan boshlab tadkikotchilar O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish sanasini axamoniylargacha bulgan davrlar. ya’ni mil. avv. IX-VII asrlar bilan belgilaganlar.

Lenin, sho‘ro davri tadkikotlariga nisbatan mustakillik yillarida ilk davlatlarning vujudga kelishi sanasi va davlatlarning turlari tugrisidagi karashlar yangi asoslarda rivojlantirilib, ancha uzgardi. Ikkinchidan, tadkikotchilar davlatning paydo bulishi jarayonini, eng avvalo, axolining u mumiy manfaatlarini amalga oshirish zaruriyati bilan bog‘lab, davlatning vujudga kelishi “mutlako iktisodiy omillar bilan cheklanib kolmaydi”, deb ta’kidladilar.

D.A. Alimova va E.V. Rtveladze O‘zbekistan davlatchiligi tarixini O‘rganishning quyidagi asosiy qoidalarini kayd kilganlar:

1. O‘zbekiston davlatchiligi avtohton etno-madaniy negizga tayanuvchi qadimgi sivilizatsiyaning ilgari karab rivojlanishi asosida mustakil ravishda paydo bo‘lganligi.
2. O‘zbekistan davlatchiligining an’anaviyligi va Uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga qadam-baqadam rivojlanishi.
3. O‘zbekiston davlatchiligi tarixiy shakllarining xilma-xilligi.
4. O‘zbekiston davlatchiligi shakllarining sivilizatsiya taraqqiyoti bilan yana bir jarayondagi tadrijiy takomili.

Umuman olganda, O‘rta Osiyoda ilk davlatchilik va boshkaruv masalalarini o‘rganishga kompleks yondashish. ya’ni barcha xududlar tarixini uzviy bog‘liqlikda o‘rganish maksadga muvofikdir. Shu jixatdan Sug‘d va Farg‘ona xududlaridagi kadimgi davr yodgorliklarini chuqur va kiyosiy o‘rganish xozirgi kunda juda dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Zarafshon voxalarida R.X.Sulaymonov, O.N. Lushpenko, L. Raimkulov, M.X. Xasanov xamda Fransiya olimlari P. Bernar, F. Grene, K. Rapenlar tomonidan amalga oshirilgan tadkisotlar

natijasida kadimgi SO'G'D tarixiga oid ma'lumotlar ancha kengaydi. Mazkur kadimshunoslarning nashrlarida ayrim muxim ijtimoiy - iqtisodiy masalalar yoritildi.

Mustaqillikdan so'ng Xorazmda kechgan davlatchilik jarayonlarini o'rganishga katta e'tibor berildi. Mazkur masala yuzasidan sho'ro davrida xam tadkikotlar olib borgan Yu.A. Rapoport, M.G.Vaynberglar ma'lumotlari diqqatga sazovordir Ular "Katta Xorazm" va umuman, davlatchilik muammosini yangicha asosda talkin kilganlar. Tadkikotchi L.T. Yablonskiy kuchmanchilar konfederatsiyasi va saklar bilan bog'lik migratsiya xarakterlar xamda ularning Xorazmdagi davlatchilik jarayonlariga ta'sirini tadkik kilgan. Bu muammoga tadkikotchi V.N. Yagodin xam o'z maqolalarida katta e'tibor qaratib, Xorazm davlatchiligi vujudga kelishining markazi Sariqamish kuli buylari xamda janubiy Xorazm xududlariga turri kelib, ularning xam asosiy markazi Kuzalikir va Xazorasp shaxarlari bulgan, degan fikrni ilgari suradi". Keyingi davrlarda, ayniqsa, Xumbuztepa, Toshkirmon voxasi va janubiy Xorazmda S.B. Bolelov. S. Baratov, Sh. Matrasulov, V.N. Yagodin, F.X. Xodjaniyazovlar tomonidan olib borilgan arxeologik tadkikotlar muxim axamiyatga ega.

Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.

Mustaqillik yillarida o'zbek tarixshunosligida ro'y bergan eng muhim o'zgarish, ya'ni tarixiy adolatni qaror topishi – bu buyuk Sohibqiron Amir Temur pok nomini tiklanishi bo'ldi. Yurtboshimiz ta'rifi bilan aytganda "... tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo" nomi butun jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk shaxslar qatoridan joy olgan. XX asr 90-yillari o'zbek tarixshunosligida Amir Temur davri tarixi, davlat boshqaruvi xususida ko'plab ahamiyatga molik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ilk bora "Temur tuzuklari" kitobi o'zbek va boshqa tillarga o'girildi, shu davrga oid qator tarixiy manbalar, jumladan Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, ibn Arabshoh, de Klavixo va boshqalarning asarlari tarjima qilindi, Amir Temurning O'rta Osiyo va jahon tarixida tutgan ulkan roli va xizmati ochib berildi, Temurning

millatimiz faxri va kahramonligi obrazi darsliklardan joy oldi, Amir Temur davlati ichki va tashqi siyosati xususida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va hakozi. 1996 “Amir Temur yili”da Parijda va Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumandarda bashariyat tarixida buyuk Sohibqiron tutgan o‘rni mavzusi qator taniqli o‘zbek va jahon olimlarining chiqishlarida o‘z aksini topdi. Amir Temur shaxsi, faoliyati, u barpo etgan davlat tarixi XXI asrda nafaqat Sharq, balki G‘arb dunyosi, ilmiy jamoatchiligida ham ulkan qiziqishga sabab bo‘lmoqda.

Istiqlol yillarida Amir Temurning o‘g‘li, deyarli qirq yil Temuriylar saltanatida zukkolik va oqillik bilan hukm surgan Shohruh Mirzoning faoliyati ilk bora ilmiy jihatdan o‘rganildi. Shohruh Mirzoning Temuriylar saltanati birligini saqlab qolishdagi o‘rni va roli ochib berildi. G‘iyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy singari diplomat va sayohatchilarning asarlari tarjima qilindi. Holbuki Shohruh Mirzoning faoliyati xususida mustaqillik davriga qadar alohida olingan tadqiqot ishi amalga oshirilmagan edi.

“...Tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatgan” buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay)ning faoliyati xususida vaqtida ko‘plab kitoblar yozilgan edi. Lekin, faqat istiqlol sharofati ila Mirzo Ulug‘bekning faoliyati va ilmiy merosi tom ma’noda chuqur va har tomonlama o‘rganilishi boshlandi. 1994 “Mirzo Ulug‘bek” yili da YuNESKO tashabbusi bilan Parijda va Toshkentda o‘rkazilgan ilmiy anjumanlarda Mirzo Ulug‘bek davri tarixi yuzasidan ko‘plab e‘tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirila boshlanganligi ayon bo‘ldi. Ilk bora Mirzo Ulug‘bekning davlat arbobi va madaniyat homiysi sifatidagi tarixdagi o‘rni va roli ochib berildi. Ham shohlik ham olimlikni o‘zida yuksak salohiyat ila mujassam qila olgan ulug‘ zot faoliyati xususida nafaqat tarixchi olimlar, balki tabiiy fan vakillari ham qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Mazkur holat 2009 yil Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda ham to‘liq o‘z aksini topdi. Mustaqillik yillarida tarix fanida yuz bergan muhim ijobiy o‘zgarishlardan biri – xalqimizning milliy kahramoni, mustabid sovet hukmronligi davrida noming nohaq qoralangan Amir Temur pok nomini oqlanishi bo‘ldi. Respublikamiz

Birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan sohibqironning millat va davlat ravnaqidagi buyuk xizmatlari e'tirof etilgan holda uning 660 yilligi 1996 yili xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Sohibqiron shaxsiga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosat, Temuriylar hukmronligi xususida ko'plab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikamizda 1996 yil – “Amir Temur yili” deb e'lon qilindi, “Amir Temur xalqaro jamg'armasi” tashkil etildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi, “Amir Temur” ordeni ta'sis etildi, YuNESKO tashabbusi bilan 1996 yil aprelda Parijda xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi, Amir Temur va Temuriylar davriga oid ko'plab tarixiy manbalar tarjima qilindi va hokazo. Shubhasiz, tarixiy haqiqatni qaror toptirish ishiga tarixchi olimlar ham o'z munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar. A.O'rinboev, B.Ahmedov, D.Yusupova, U.Uvatov, A.Muhammadjonov, A.Ahmedov, O.Bo'riev va boshqa ko'plab olimlar tomonidan tarixiy manbalar tarjima qilindi, e'tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirildi: A.Ziyo, H.Bobojev, S.Xidirov, Sh.O'ljaeva, D.Obidjonova, X.Fayziev, B.Usmonov, O.Rahmatullaeva kabi ko'plab tadqiqotchilar esa o'z izlanishlarida mavzu bilan bog'liq ko'plab tarixiy va huquqiy jihatlarni ochib berishga muvaffaq bo'ldilar.

Amir Temur va Temuriylar tarixi nafaqat respublikamizda, balki jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Amir Temur haqida K.Marlou 1588 yili tarixiy pesa, mashhur nemis bastakori G.Gendel 1724 yili opera, amerikalik adib E.Po 1827 yili she'riy poema yaratgan. XX asr tarixshunosligida R.Grosse, L.Keren, Ye.Rose, X.Xukxem, F.Mans, G.Glombek, A.Deraga, K.Yenoki, Ye.Manau, M.Rossati va boshqalarning tadqiqot ishlari katta shuhrat qozongan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 2000 yilga kelib Yevropa xalqlari tillarida Amir Temur va Temuriylar haqida chop etilgan asarlar soni 500 tani tashkil etgan. 2006 yili Amir Temurning xalqaro miqyosda nishonlangan 670 yillik tavallud yoshi arafasida taniqli fransuz olimi L.Keren Parijda fransuz tilida “Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat” nomli tadqiqotni amalga oshirdi.

Nazorat savollari:

1. Oʻrta Osiyo davlatchiligi masalasiga oid qarashlar qachon vujudga keldi?
2. Mustaqillik yillarida mavzuga doir tadqiqotlarning mazmun – mohiyatini taʼriflab bering.
3. Amir Temur davrida Movaraunnahrda davlatchilik rivojini tahlil qiling.
4. Temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivojini tahlil qiling.

3-mavzu: Turkistonda xonliklar davri va Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruvi masalalari.**Reja:**

1. Soʻnggi oʻrta asrlarda oʻzbek xonliklari: maʼmuriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari.
2. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari.

Tayanch soʻzlar: qoloqlik, xurofat, parokandalik, dasht urugʻlari, iqtisodiy-siyosiy tushkunlik, hukmdorlar oʻrtasidagi oʻzaro kurashlar, xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi, Darveshxon toʻra boshchiligidagi xalq harakati, “Vabo isyoni”, 1892 yilgi Toshkent qoʻzgʻoloni

Soʻnggi oʻrta asrlarda oʻzbek xonliklari: maʼmuriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari

XVI- XIX asrlar I – yarmi oʻzbek xonliklari hukmronligi davri koʻp jihatdan jahon sivilizatsiyasidan uzoqlashish, ilm-fan, texnika yutuqlaridan bebahra qolish, hududning koʻp holda oʻzaro nizo va urushlar domiga tortilishi oʻlkada qoloqlik, xurofat, parokandalikning kuchayishiga olib keldi. Bu davr yuqoridagi holatlar bilan xarakterlangan boʻlib, uch asrlik davrning koʻpgina qismlari eʼtibor va tahlildan chetdan qoldi, koʻpgina masalalar oʻrganilmadi, qoloqlik sabablari tahlil etilmadi va hokazo. Mustaqillik davriga kelib masalaning

muammoviy jihatlarini yechish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu davr yuzasidan ham tegishli tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Xususan ilk bora davlat boshqaruvi xonliklarning Yevropa va Sharq mamlakatlari bilan munosabatlari, shaharlar taraqqiyoti, savdo munosabatlari, harbiy ish va harbiy san'at tarixi va boshqa ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot tarixiga oid masalalar yuzasidan tadqiqot ishlari amalga oshirildi, ko'plab tarixiy adabiyotlar chop etildi, tarixiy manbalar tarjima qilindi. O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrning boshi – XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid ko'pdan ko'p yozma manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Ular avvalo, mahalliy tarixnavislik maktablari vakillarining asarlari, qolaversa, O'rta Osiyoga tashrif buyurgan elchilar, sayyohlar, zobitlarning ma'lumotlaridan iborat. Ushbu manbalar yuqoridagi davr tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik – madaniy hayot hamda siyosiy jarayonlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ular orasida quyidagilarni alohida sanab o'tish maqsadga muvofiqdir: Boburning "Boburnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Mulla Shodining "Fathnoma", Fazlulloh Ro'zbexonning "Mehmonnomai Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoe", Xofiz Tanish Buxoroniyning "Abdullanoma", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Xoja Samandar Termiziyning "Dastur al-muluk", Mirza Badi devonning "Majma al-arkam", Mir Muhammad Salimning "Silsilat as-salotin", Abduraxmon Davlatning "Tarixi Abulfayzxoniy", Mulla Vafo Karmanagiy va Olimbekning "Tuhfat al-xoniy", Abulg'oziyning "Shajarai turk", Niyozmuhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shohruhiy", Muhammad Hakimxonning "Muntaxib at-tavorix", Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol", Ahmad Donishning "Mang'it amirlari tarixi" kabi asarlardir.

XVI-XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid manbalar ma'lumotlarini ilmiy muamalaga kiritishda ko'plab sharqshunos, tarixchi va huquqshunos olimlar tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu yo'nalishda V.Abdullaev, A.Arends, B.Axmedov, S.Azimjonova, M.Abduraimov, Ya.G'ulomov, U.Karimov, A.Kononov, N.Maliskiy, R.Muqminova, A.Muhammadjonov, R.Nabiev, T.Ne'matov, N.Norqulov, A.O'rinboev, A.Ziyo, H.Bobobekov, Sh.Vohidov,

R.Xoliqova, M.Yo‘ldoshev, H.Boboiev, A.Saidov, Z.Muqimov, I.Saidahmedovlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnahrda Temuriylarning bir-biridan o‘zaro mustaqil bo‘lgan uchta hokimiyati vujudga keldi: 1. Samarqandda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi (1468—1503); 2. Toshkentda Sulton Mahmud Mirzo hukmronligi (1468-1498); 3. Andijonda Umarshayx Mirzo hukmronligi (1468-1494). Bu uchala davlatning o‘zaro urushlari Movarounnahr ahlining temuriylardan noroziligini yanada avj oldirdi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat tarafida turdilar. Bu temuriyzodalarning davlat boshqaruvida mustahkam tayanchga ega emasligidan dalolat berardi. Bu vaqtda temuriylar huzurida ta‘lim olgan Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shohbaxt Dashti Qipchoqda dasht urug‘larini birlashtirib, o‘z hokimiyatini mustahkamlamoqda edi.

Shayboniyxon harbiy harakatlar olib borib markazlashgan davlat tuzish maqsadida goh temuriylar, goh shimoldagi mo‘g‘ullar bilan ittifoq tuzdi. U 1487-88 yillarda O‘tror, Sayram, Yassa (Turkiston), Sig‘noq shaharlarini bosib olib, 1499 yilda Movarounnahr hududlariga jiddiy harbiy harakatlar boshladi.

Mahalliy hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar avj olgan Samarqand shahrini Shayboniyxon 1500 yilning boshlarida jangsiz egalladi. Dasht uluqlari bir necha oy shaharni shafqatsiz talon-taroj qildilar. Bu esa mahalliy feodallar noroziligiga sabab bo‘ldi. Bundan foydalangan Temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘sha yili (1500 yil) Samarqand taxtini ikkinchi marta egalladi. Ammo mahalliy zodagonlar ko‘pchiligi Boburni qo‘llab-quvvatlamadilar. 1501 yilning bahorida Bobur Shayboniyxon bilan bo‘lgan jangda yengiladi va Samarqandni unga topshiradi.

Dashti Qipchoqliklar qisqa muddat ichida Buxoro (1500), Samarqand (1501), Toshkent (1503), Hisor (1504), Urganch (1505), Hirot (1507) kabi shahar va viloyatlarni egallab, Sharqiy Turkiston chegaralaridan Markaziy Afg‘oniston hududlarigacha cho‘zilgan yerlarda markazlashgan shayboniylar davlatiga asos soldilar. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarqoqlik, ayrim hukmdorlarning ajralib mustaqillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib kelgan bo‘lsa, Shayboniyxon bunday

tarqoqlikka chek qo'yib mamlakatning birligini mustahkamlay oldi.

Shayboniyxonning janubga tomon yurishlari eron shohi Ismoil I tomonidan to'xtatildi. 1510 yil Marv atroflarida bo'lgan jangda dasht qo'shinlari tor-mor etildi va Shayboniyxon halok bo'ldi. Eroniyar tomonidan qo'llab-quvvatlangan Bobur 1511 yilda Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Samarqandni egalladi. Ammo 1512 yilda shayboniylardan bo'lgan Ubaydulla Sulton qo'shinlari o'ijduvon yaqinida Bobur va shoh Ismoilning birlashgan kuchlarini mag'lubiyatga uchratdi. Shundan so'ng Bobur avval Qobulda, keyin esa Hindistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Dashti Qipchoq qabilalari esa Movarounnahrda o'rnashib qoldilar.

XV asr oxiri-XVI asr boshlaridagi Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy voqealar to'g'risida yozilgan muallifi noma'lum «Tarixi guzidai Nusratnoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Boburning «Boburnoma» asarlari muhim manbalar hisoblanadi.

Temuriyzodalar o'rtasidagi o'zaro urushlar, birodarkushliklar nafaqat quyi tabaqa ahlining, balki yirik zodagonlarning ham noroziliklariga sabab bo'ldi. Natijada Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi va tugatildi. Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar sulolasi davrida ham markaziy hokimiyat unchalik mustahkam emas edi (bu o'rinda Abdullaxon II hukmronligi davri (1583-1598) birmuncha diqqatga sazovordir). Bu holat o'sha davr Vatanimiz hududlarining parchalanib, alohida davlatlarga bo'linib ketishi va zaiflashuvi uchun zamin yaratdi.

O'rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari: Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'yidilar. Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1534 yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining Oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon mamlakat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. XVI asrning 40-yillariga kelib, zodagonlar va mahalliy sulolalar o'rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1552 yy.) bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550 yy.) o'rtasidagi kurashni

Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro'z Ahmadxon) yanada kuchaytirdi. U hatto 1551 yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonqol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi va 1557 yilda Buxoroni bosib oldi.

1561 yilda taxtga o'tirgan Iskandarxon ham siyosiy tarqoqlikka barham bera olmadi. Ammo uning o'g'li Abdullaxon markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg'ona (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron (1582), Balx (1583), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1595) Abdullaxon qo'l ostiga birlashtirildi. Ammo 1598 yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So'nggi Shayboniy hukmdori Pirmuhammad II ham bebosh amirlarni tiyib qo'ya olmadi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan eron safoviylari, Xiva inoqlari va qozoqlar unumli foydalandilar. Eroniylar Balxni, qozoq sultonlari o'z manfaatlari yo'lida Toshkentni egallagan bo'lsa, Xorazm xonlari mustaqil bo'lib oldilar. Buxoroning zodagon guruhlari astraxanlik Jonibek Sultonni taxtga taklif qildilar. Jonibek Sulton o'g'illari foydasiga taxtdan voz kechdi va shu tariqa O'rta Osiyoda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar Balxni eroniylardan, Toshkentni qozoqlardan tortib oldilar. Ammo ko'pgina urushlarga qaramay Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Ayrim ashtarxoniy hukmdorlari Imomqulixon (1611-1642 yy.), Abdulazizxon (1645-1680 yy.), Ubaydullaxon (1702-1711 yy.) hukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harchand harakat qilinmasin, bu harakatlar aytarli ijobiy natijalar bermadi. Mahalliy amirlar va sultonlar o'z joylashgan shahar va hududlarida hokimlik qilib, bu hududlarda yirik yer egalari bo'libgina qolmay, butunlay xo'jayin edilar. Ulardan ko'pchiligi o'z guruhlari kuchiga tayanib markaziy hokimiyatga deyarli bo'ysunmas edilar. Hukmdorlar esa amirlar va sultonlarning bir-birlari ustiga yurishlaridan ko'p foydalanardilar. Abdulfayzxon hukmronligi davrida (1711-1747 yy.) markaziy hokimiyat o'z

ahamiyatini yo‘qotib bordi. O‘okimiyat asta-sekinlik bilan mang‘it urug‘lari qo‘liga o‘ta boshladi. Bu urug‘ vakili bo‘lgan Muhammad Rahim 1753 yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o‘tirdi.

Xorazm hududida 1512 yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Unga Shayboniy urug‘idan bo‘lgan elbarsxon (1512-1525 yy.) asos soldi. Elbars vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. O‘zaro urushlar va hukmdorlarning tez-tez almashib turishi natijasida bu davrda Xorazm hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan edi.

Xon hokimiyati qabila zodagonlari bilan cheklangan bo‘lib, nizolar va o‘zaro urushlar deyarli tinmagan. Shu davrda Xorazm chuqur inqiroz davrini boshidan kechirdi. Savdo-sotiqning arzi darajada ekanligi shahar hayotini sust rivojlantirdi. Bu jarayon XVI-XVII asr boshlarida ham davom etdi. Asr boshlariga oid Xorazm haqidagi ma‘lumotlarda siyosiy va iqtisodiy tanazzul ta‘kidlanadi. Xususan, Abdulg‘oziyning «Shajarai turk» asarida, Ivan Fedotov ma‘lumotlarida bu holat qayd etilgan. Boshqaruvda vazir qushbegi bilan birgalikda xon maslahatchilari, inoqlarning borligi ma‘muriy tuzumning juda murakkabligidan darak beradi. Xo‘jalik inqirozi va feodal urushlar Xorazm vohasi madaniyatiga ham putur yetkazdi. Feodal o‘zaro nizolar Arab Muhammad (1602-1623 yy.) va uning davrida eng yuqori nuqtaga yetdi. Asfandiyor (1623-1643 yy.), Abulg‘ozixon (1643-1663 yy.), Anusha (1663-1687 yy.) lar davrida Buxoro bilan Xiva o‘rtasida mamlakat ahvolini xarob qiladigan urushlar bo‘lib o‘tdi.

Ashtarxoniylar davridagi iqtisodiy-siyosiy tushkunlik Buxoro xonligini parchalanishiga olib keldi. Bu davrda Farg‘ona xonlikdan alohida o‘lka sifatida ajralib chiqdi. 1710 yilda minglar sulolasidan bo‘lgan Shohruhbiy Farg‘onada hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Minglar sulolasi keyinchalik Sirdaryo havzasini, yettisivning bir qismini egalladi. Bu davlatning poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lib qoldi.

XVIII asr boshlarida Buxorodan Balx, Xorazm, ikkinchi yarmida Toshkent mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdilar. Ichki kelishmovchilik, nizolar va siyosiy parokandalik mamlakatdagi bo‘linib ketishning asosiy sababi bo‘ldi. 1722 yildagi

Rajabxon qo'zg'oloni Buxoro xonligini larzaga soldi. Abulfayzxon (1710-1747) davrida Buxoro xonligi shu darajada parokandachilikni boshidan kechirdiki, eron shohi Nodirshoh 1710 yilda Buxoroni, keyin Xorazmni bosib oldi. Buxoroliklar va xorazmliklarni eroniylar talab, xonavayron qildilar. 1747 yilda Nodirshoh vafotidan keyin Abulfayzxon ham o'ldirildi.

Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingan edi. Xonliklar hududida yer egaligining uchta turi: davlat yerlari, xususiy yerlar, vaqf yerlari mavjud edi.

Xonliklar aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar. Asosiy soliq turlari xiroj, zakot bo'lib, shu bilan birga turli majburiyatlar mavjud edi. Bular Xiva xonligida begar, qazuv, mushrifona va boshqalar bo'lsa, Buxoro amirligida urush paytda olinadigan favqulodda soliq-jul, suv haqi, nimsara va boshqalar, Qo'qon xonligida esa hashar, harbiy xizmat majburiyatlari bor edi.

Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, diniy mutaassiblik mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Ayniqsa, xonliklar ichidagi etnik guruhbozlik fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishiga to'siq bo'lar edi. Undan tashqari turli urug' vakillari davlat boshqaruvida yuqori mavqega ega bo'lish uchun boshqa urug' vakillariga qarshi zimdan va ochiqchasiga kurash olib borib, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarar edilar. Buni Xiva xonligidagi XVIII asr voqealarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu davrda Xivada turli urug' vakillaridan xonlar ko'tarildi.

Bu xonlarning almashishi xalq uchun katta kulfatlar keltirar edi. XVII asr oxirlariga kelib, Xiva xonligida qo'ng'irotlarning mavqei osha bordi va 1804 yilda ular Xiva xonligi taxtini egallab, 1920 yilgacha bu xonlikda hukmronlik qilishdi. Qo'qon xonligida hukmronlik qilishgan minglar sulolasi o'zlarining tashqi istilochilik urushlari va o'zaro sulolaviy kurashlari bilan xonlik aholisining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtirdi. Ayniqsa, Xudoyorxon davrida talonchilik urushlari va solingan ko'plab soliqlar xalqning ko'plab noroziligiga sabab bo'ldi, natijada Xudoyorxon ikki marotaba taxtdan haydalib, yana taxtni

egalladi. Minglar sulolasi Qo‘qonda 1710 yildan 1876 yilgacha hukmronlik qilishdi.

XVIII asrning birinchi yarmida bitta iqtisodiy hududdagi bir elat, bir xalqning uchta mustaqil, siyosiy xonlikka ajralib ketishi, bu hududda yashayotgan xalqlarning boshiga juda og‘ir kulfatlarni keltirdi. Xonliklar ichidagi sulolaviy va o‘zaro urushlari xalqning og‘ir ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Xivaliklarning turkman urug‘lariga qarshi uyushtiradigan mavsumiy talonchilik yurishlari, Buxoro amirligining Kitob va Shahrisabz bekliliklariga qarshi olib borgan doimiy urushlari, Qo‘qon xonligining Toshkent va Xo‘jand uchun Buxoro amiriga qarshi kurashlari bitta xalqning parchalanishiga, o‘zaro madaniy, savdo aloqalarining uzilib qolishiga sabab bo‘ldi. Xonliklar hududidagi xalq norozilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, har qanday ilg‘or fikr, yangilik diniy mutaassiblarning ta‘qibiga uchrar edi. Bu paytda nafaqat boshqa hududlar bilan hatto Qo‘qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning ham o‘zaro aloqasi yo‘q edi. Bu o‘z navbatida O‘rta Osiyo ilm-fanini turg‘unlikka, hatto tanazzulga olib keldi. Tabiiy fanlarga e‘tibor umuman yo‘qoldi. O‘rta Osiyo xalqlari yevropa fan texnika taraqqiyotidan bexabar bo‘lib, orqada qolib ketdi.

Rossiya bilan o‘rnatilgan savdo aloqalari asosan bir guruh boylar qo‘lida bo‘lib, ular madaniy aloqalarga, fan-texnika taraqqiyotini kirib kelishiga aydarli ta‘sir ko‘rsatmadi va o‘lkadagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyat chor Rossiyasining o‘z agressiv maqsadlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada Rossiya O‘rta Osiyoni osonlik bilan bosib oldi.

Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari.

XIX asr II- yarmi – XX asr boshlari Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lmish – Turkiston o‘lkasi tarixida ham ma‘lum bo‘shliq, soxtalashtirilgan sahifalar mavjud bo‘lgan. Mustaqillik yillarida quyidagi masalalar ilk bora o‘rganilib, keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etildi: o‘lkada ro‘y bergan milliy-ozodlik harakatlari va ularning yo‘lboshchilari faoliyati, jadidchilik harakati, jadid ma‘rifatparvarlarining ziyo tarqatish yo‘lidagi jonbozligi, sa‘y-harakatlari,

agrar sohada paxta yakkahokimligining joriy etilishi, mustamlaka ma'muriyatining harbiy-zo'raonlik boshqaruvi va uning oqibatlari, ta'lim tizimi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya imperiyaning Turkiston o'lkasiga uyushtirgan bosqinchilik yurishlari, mustamlakachilik siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, milliy-ozodlik harakatlari, umuman, imperiya bosqinining maqsad-mohiyati va oqibatlari haqidagi manbalar – qo'lyozma asarlar, esdaliklar, xotiralar, hujjatlar va arxiv ma'lumotlari majmui ko'pchilikni tashkil etadi. Afsuski, sovet hukmronligi davrida ularning barchasi bir yoqlama tadqiq etilib, masalaning mohiyatiga xolisona baho berilmadi.

Mavzu bo'yicha ko'plab tarixiy asarlar mavjud bo'lib, ularning orasida quyidagilar: Muhammad Solihho'janing «Tarixi jadidayi Toshkand», Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotin mang'itiya», Muhammad Attor Ho'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Ibratning «Farg'ona tarixi», Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», Hakim Ma'sumxonning «Muntaxib ut-tavorix», Muhammad Sodiq Munshiyning «Qo'qon xonligi tarixi», «Tarixi Manzum», Aziz Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy», Ahmad Donishning «Mang'it amirlari tarixi», Muhammad Fozilbekning «Mukammali tarixi Farg'ona» va hokazolar muhim o'rin egallaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti jamg'armasida ham mavzuning u yoki bu tomonlarini yorituvchi manbalar turkumi saqlanadi. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi jamg'armalarida saqlanayotgan turli hujjatlar, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida chop etilgan matbuot nashrlari mavzu haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan asrning 20-yillarida G.I.Safarov, P.G.Galuzo, A.Z.Validiy va boshqa shu kabi mualliflarning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati o'z aksini topgan edi.

Ushbu mavzuni tadqiq etish, o'rganish XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo'lishiga qaramay, mustaqillik yillarida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishi hamda o'lkada olib borilgan mustamlakachilik siyosat ilmiy

va haqqoniy tarzda yoritilmoqda. Ushbu mavzuning turli jihatlarini bo'yicha H.Ziyoev, N.Abduraximova, F.Is'hoqov, H.Sodiqov, F.Ergashev, R.Shamsutdinov, H.Bobobekov, D.Ziyoeva, P.Ravshanov, Q.Usmonov, Z.Choriev, Sh.Vohidov, N.Musaev kabi ko'plab olimlarning tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida mustamlaka Turkiston o'lkasi, imperiya qaramligidagi Buxoro, Xiva xonliklarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va madaniy hayot tarixining o'rganilmagan yoki kam tadqiq etilgan mavzulariga oydinlik kiritildi, jadidchilik harakati, atoqli jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati xususida, o'lkada ro'y bergan milliy-ozodlik harakatlari to'g'risida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi va hokazo.

XIX-asr oxirlari XX-asr boshlaridagi Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixi, ichki siyosat va Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar, mustamlaka ma'muriyatning ko'chirish siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot bobidagi boshqa turli masalalar. Yuqorida qayd qilingan masalalar ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalariga tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olinib, fanda o'z yechimini topgan mavzular sirasiga kirgan. Shuningdek, ko'plab anjuman, chiqishlarda, chop etilgan monografiya, o'quv adabiyotlarida ham ushbu masala yoritib berilgan.

Turkiston o'lkasida imperiya ma'murlarining mustamlaka siyosatiga qarshi harakatlar (turli ko'rinish va miqyoslarda) Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olayotgan paytlardayoq boshlangan bo'lib, ular shafqatsizlarcha bostirilib borildi. 1873-1876 yillar Qo'qon xonligidagi Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olonidan so'ng o'lkaning bir qancha hududlarida xalq ommasining norozilik harakatlari bo'lib o'tdi.

Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi hozirgi O'zbekiston va Qirg'iziston respublikalarining tog'li hududlarida "Oloy malikasi" nomi bilan mashhur bo'lgan Qurbonjon dodxox 1876 yilning oxiriga qadar bosqinchilarga qarshi kurashib kelgan. Uning qo'shinlariga qarshi yuborilgan general Skobelev boshliq rus qo'shinlari qo'zg'olonchilarga qarshi harakatlarda yengilganligi bois,

mustamlakachi ma'murlar Qurbonjon dodxox bilan sulh tuzishga majbur bo'ldilar. Ana shunday harakatlardan yana biri 1878 yilda Mingtepa (Andijon) da Yetimxon boshchiligida bo'lib o'tgan isyondir. Bu isyondan so'ng Farg'ona viloyati general-gubernatori viloyatdagi mahalliy aholidan g'ayriqonuniy soliq undiruvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo'lgan. 1885-90 yillarda Andijonning Qo'rg'ontepa uezdida Darveshxon to'ra boshchiligidagi xalq harakatlari bo'lib o'tdi. Ammo, bu harakatlar rus ma'murlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi.

“Vabo isyoni” nomini olgan 1892 yilgi Toshkent qo'zg'oloni XIX asr oxiridagi muhim harakatlardan biri bo'ldi. Bu qo'zg'olon ko'plab tarixiy adabiyotlarda o'lkada vabo kasali tarqalishi oldini olish uchun bo'lgan harakat deb ta'riflangan bo'lsa-da, aslida bu qo'zg'olon Rossiya imperiyasining o'lkadagi mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan harakat bo'lib, mustamlakachilik zulmiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik kurashining bir bosqichi edi.

1892 yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda ham rus mustamlakachi ma'muriyatini talvasaga solgan va tarixga «Vabo isyoni» yoki «Toshotar voqeasi» sifatida kirgan qo'zg'olon boshlandi. Rasmiy doiralar bu qo'zg'olon vaboga qarshi rus amaldorlari qo'llagan tadbirlardan norozilik tufayli kelib chiqqan, deb izohlashga urindilar. Shuning uchun ham uni «Vabo isyoni» deb nomlashdi. 1892 yil may oyida Jizzaxda vabo bilan og'rigan kishilar xaqidagi xabar butun o'lkaga tarqaldi va Sirdaryo viloyatiga o'tadigan kechuv oldida ehtiyot yuzasidan kuzatish bekati tashkil qilindi. Iyun oyida Toshkentda ham vabo tarqalgani ma'lum bo'ldi. Yangi shaharda 417, eski shaharda 1462 bemor aniqlandi. 1892 yil 7 iyunda shahar ma'muriyati 12 eski qabristonni yopib, yangi 4 qabriston ochilishini, shahardan chiqish cheklanganini e'lon qildi. Ammo mustamlaka ma'muriyati tibbiyot nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lgan bu tadbirlarni o'tkazishda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim qonun-qoidalarini hisobga olmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Marhumlarni urf-odatga ko'ra ko'mish g'oyat mushkul yumushga aylandi. Odamlar noiloj o'likni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldilar. Politsiya bundaylarni topib hibsga ola boshladi. Qabrlarni ochib, o'lganlarning ruhi

hakorat qilindi. Haloyiq bosh oqsoqolni qidirib ketdi. Eshonlardan Azizyor, Abulqosimxo‘ja, bozor oqsoqoli Ziyomuhammad va boshqa taniqli kishilar boshchiligidagi mingga yaqin kishi shahar boshlig‘i mahkamasi tomon yo‘l oldilar. Ularga O‘rda bozori yaqinidagi Voronsov ko‘chasida hokim to‘ra - shahar boshlig‘i polkovnik S.R.Putinsev va oqsoqol Muhammad Yoqub to‘qnash kelishdi. Qilichini o‘ynatib kelgan oqsoqol xalqning so‘zlari, arz-dodini tinglash o‘rniga unga dag‘dag‘a qilaboshladi. Ana shunda uning boshiga toshlar yog‘ildi. Mashxur “Toshotar voqeasi” boshlanib ketdi. Oqsoqol otdan tushib hokimning idorasiga qochib yashirindi. Polkovnik Putinsev esa o‘zining sodiqqulini panohiga olib, xalqni tinchitishga urindi. Xalq undan oqsoqolni tutib berishni talab qildi. Putinsev ham muzokara o‘rniga kuch ishlatishni afzal ko‘rib, chiqarib, dag‘dag‘aga o‘tdi. Sabr kosasi to‘lgan xalq uzoqo‘ylab o‘tirmay, hokimga xujum boshladi. Putinsev va uning mirshablarini do‘pposladi, mahkamani ham ostin-ustin qildi.

Qurollangan soldatlarning yetib kelgani ham qo‘zg‘olonchilarni cho‘chitmadi. Mustamlakachi amaldorlar xalqni o‘qqa tutdilar. Natijada ko‘plab kishilar xalok bo‘ldi va yaralandi. Ta‘kidlash joizki, o‘lganlar va yaradorlarning miqdori xaqida aniq ma‘lumotlar saqlanmagan. Chunki xalqning o‘zi jasadlar va yaradorlarni o‘zlari bilan olib ketishdi. Qo‘lga olingan 60 kishidan 8 kishi o‘lim jazosiga, qolganlari qamoq va surgunga hukm qilindi.

Nazorat savollari:

1. Ichki kelishmovchilik, nizolar va siyosiy parokandalik mamlakatdagi bo‘linib ketishning asosiy sababi ekanligini izohlang.
2. Tarixga «Vabo isyoni» yoki «Toshotar voqeasi» sifatida kirgan qo‘zg‘olon haqida mulohaza bildiring.
3. Mustaqillik yillarida Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasini bosib olishi mavzusidagi tadqiqotlarni sanang.
4. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyatini tahlil qiling.

4-mavzu: O‘zbekistonda davlat boshqaruvining shakllanishi va rivojlanib borishi.

Reja:

1. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.
2. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli.

Tayanch so‘zlar: erkin fuqarolik jamiyati, “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi, Samarqand madaniyat va tarixiy yodgorliklarni ta‘mirlash ustaxonasi, Respublika innovatsiya g‘oyalari, texnologiyalari va loyihalari yarmarkasi.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu zamon va makondagi darajasi ko‘p jihatdan fuqarolar ma‘naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma‘naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog‘liq. Mustaqillik davrigacha va undan keyingi o‘tgan tarixan qisqa muddat ichida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy–mafkuraviy sohadagi o‘zgarishlar bizga sovet mustabid tuzumi hamda istiqol yillarida O‘zbekistonning real hayotida holisona javob izlash va unga erishishga imkon beradi.

O‘zbek milliy davlatchilik tarixi, eng avvalo, ma‘naviyatning jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaganligi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu azaliy an‘anaga mustaqillik yillarida ham alohida e‘tibor berilishi muhim ahamiyatga ega. Ta‘kidlash joizki, istiqolning dastlabki yillaridanoq madaniyatning metodologiyasi o‘zgardi. Agarda sho‘rolar mustabid tuzumi davrida madaniyatning asosiy vazifasi jamiyat a‘zolarining kommunistik mafkura va soxta g‘oyaga e‘tiqodini mustahkamlashga safarbar etish bo‘lsa, istiqol davrida u tamomila boshqa maqsadga xizmat qila boshladi.

Bu omillar eng avvalo, mamlakat hukumatining ma‘naviy-ma‘rifiy omillarga

nisbatan munosabati shakllandi. Jumladan, ma'rifiy-ma'naviy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi, deb belgilandi. Joylarda ma'naviyat bilan bog'liq tadbirlarning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyat hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, ma'naviyati yuksak millat va davlatgina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshladi.

Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatni sog'lomlashtiruvchi kuch ekanligi e'tirof etildi, zero, sovet mustabid tuzumi davridan qolgan "ma'naviy" merosdan xalos bo'lmay turib, istiqlolga xizmat qiladigan, fuqarolar qalbi va ongini yangilashga qodir ma'naviyatni shakllantirish mumkin emas.

To'rtinchidan, istiqlol davri O'zbekiston jamiyati ma'naviyatining eng muqaddas maqsadlaridan biri-o'tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlariga sovetlar davrida tarkib top-gan munosabat kabi "illat" sifatida emas, aksincha, jamiyatni poklantiruv-chi va kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil deb qarashdan iborat jamoatchilik fikri shakllandi.

Beshinchidan, istiqlol davrida ma'naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralardan xoliligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning ma'naviyat bilan uyg'unligi ta'minlandi. Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy maqsadi aniqlab olindi. Uning bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari belgilandi. Ana shunday sharoitda jamiyat fuqarolari tomonidan bildirilgan ijti-moiy ehtiyoj - ma'naviy-ma'rifiy sohalarda yangi asr va umuman, uchinchi mingyillikdagi bosh g'oya qanday bo'lishi aniqlandi.

Darhaqiqat, mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat sohasida mavjud bo'lgan vazifalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik sharoitida muttasil ravishda bajarib kelinmoqda. Chunonchi, istiqlolning dastlabki yillarida jamiyat ma'naviy hayotidagi eng bosh vazifa - fuqarolarda sovet davriga xos tafakkurni, eskicha fikrlash sarqitlarini bartaraf etish edi. Mazkur masalada qator yutuqlarga erishildi. Biroq, bu borada talay ishlarni bajarish lozim.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifa esa - erkin

fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, zero "ozod, o'z haquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir».¹

Istiqlol yillaridagi O'zbekiston madaniyati xususida fikr yuritganda alohida qayd etilishi lozim bo'lgan masalalardan yana biri – ma'naviyat sohasidagi siyosatning tobora konkretlashib borishi, vazifalarni hal etish yo'llarining oydinlashuvidir. Ma'naviyat jamiyat a'zolarini ruhan poklantiruvchi, ma'nan yuksaltiruvchi, inson ichki dunyosiga, irodasiga kuch-quvvat beruvchi, milliy vijdonini uyg'otuvchi va doimiy harakatdagi konkret kuchdir. Shunday ekan, ma'naviyatga umumiy tarzda munosabatda bo'lish xatodir. Zero, har bir fuqaroning ma'naviy-mafkuraviy komillik darajasi bir xil bo'lmagani kabi, ularning bunday sifatlarini uyg'unlashtirib turuvchi ko'rinishlari ham konkretir.

Yangi asr bo'sag'asida ma'naviyat sohasidagi strategik maqsadimiz—"milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir"².

Darhaqiqat, istiqlolning hozirgi bosqichida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni tashkil etishda endi ularning samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh, ma'naviyat sohasidagi ishlarning samaradorligiga erishish deganda nimani tushunish mumkin? Umuman, madaniy-mafkuraviy sohadagi ishlarimiz jamiyatni ma'naviy yuksaltirishga qodirmi?

Shu o'rinda, qurilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanishi, bu jarayon esa milliy g'oya va milliy mafkuraga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanishini alohida qayd etish zarur.

¹Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. –T.: O'zbekiston, 1999. 19-bet

²Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston, 2000. -24-bet

Agar istiqlolning dastlabki yillarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan ko'zlangan maqsad sovet mustabid tizimi asosratlaridan qutulish, jamiyatda ma'naviy yakdillikni yaratishdan iborat bo'lgan bo'lsa, endi ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ma'naviyatning mamlakatda demokratik, huquqiy, qudratli davlat qurish yo'lidagi muhim omil ekanligi endi hech kimga sir emas.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida ma'naviy omillar hamda millatlararo munosabatlar masalasiga qarash ham tubdan o'zgardi. Chunonchi, istiqlolning dastlabki yillarida "soxta baynalmilallik" oldida yurak oldirib qo'ygan hamda hadiksirash kasalidan xoli bo'lmagan holda, har qanday milliylikni ulug'lash va har qanday "bayanalmilallik"dan qochish hissiyoti yuzaga kelgan edi. Bunday biryoqlamalik, tabiiyki, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga, ayniqsa, millatlararo munosabatlar masalasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati milliylik va baynalmilallik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida munosabatda bo'la boshladi. Ayni paytda, 130 ga yaqin millat va elat yashayotgan O'zbekistonda har bir millat ravnaqi, uning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va yashash kafolatlariga har qanday tahdidlarning oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining hudbinlik kayfiyatini chegaralab qo'yadigan davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshiradi.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o'zliklarini anglash jarayoniga bo'lgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'ldi. Shu o'rinda, 1989 yili O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi huzuridagi respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta'kidlash lozim.

Istiqlol yillarida ma'naviy-ma'rifiy masalalarga jiddiy e'tibor hukumat tomonidan bu borada mukammal tarzda ishlab chiqilgan dastur asosida ish olib borishni talab etdi. Shu asosda 1994 yil 23 aprelda mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea yuz berdi. Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat jamoatchilik

markazi tashkil etildi.

Ma'lumki, sobiq Ittifoq tugatilishi bilan birga, uning kommunistik mafkurasi ham barham topdi. Bu yakkahokimlik mafkuraning achchiq saboqlaridan xulosa chiqarib, mamlakatimizning Asosiy Qonunida "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi", deb yozib qo'yilgan. Shu tariqa, jamiyatimiz hech qachon mafkura yakkahokimligi ro'y bermasligi uchun zarur bo'lgan huquqiy poydevor yaratildi.

Ma'naviyat va ma'rifat markazi qisqa davr ichida xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mam-lakat va millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish bo'-yicha yirik ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ma'naviyat va ma'rifat masalalarini bevosita jamoatchilik yo'li bilan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi o'z samarasini berdi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatni yanada rivojlantirish maqsadida 1996 yil 9 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoni jamiyatni ma'naviy barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Unda mazkur masalada jiddiy ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, ayrim hollarda ma'naviyat mohiyatini, uning olg'a siljishi, farovon, tezkor hayoti-mizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik ko'rinishlari mavjudligi, bu ishga daxldor rahbarlarda mas'ullik hislari past ekanligiga e'tibor qaratildi.

Farmonga asosan, 1997 yildan boshlab 1 oktyabr - "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" deb e'lon qilindi, "Ma'naviyat" nashriyoti tashkil etildi, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi qoshida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi ta'sis etildi.

Bu boradagi ishlarni tartibga keltirish, faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999 yil 3 sentyabrda "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni chiqdi. Ushbu Farmon ma'naviyat va ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risidagi g'oyani yanada mustahkamladi va unga yanada

kuch berdi. Hukumat tomonidan ko‘tarilgan tadbirlar samarasi natijasida ma’naviyat va ma’rifat jamiyatda ruhiy poklanishga, shaxs ulug‘vorligini oshirishga, demokratik, huquqiy, insonparvar davlat qurishga mustahkam poydevor yaratildi.

Istiqlol yillarida O‘zbekiston hukumati milliy madaniyatni rivojlantirish, ayniqsa, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga katta e’tibor berdi. Ma’lumki, mamlakatimiz jahon sivilizatsiyasining muhim o‘choqlaridan biri sifatida ko‘plab tarixiy-madaniy, me’moriy yodgorlik-larga juda boy. Biroq sobiq ittifoq davrida ularni saqlash, ta’mirlash juda o‘lda-jo‘lda edi. Istiqlol esa ana shu obidalarni saqlash, ularni kelgusi avlodga butunicha yetkazish imkonini berdi. Agar sobiq sovetlar davrida 6700 dan ortiq madaniyat va tarix yodgorliklarini ta’mirlash, tiklash ishlariga 1989 yilda 10,2 mln. so‘m, 1990 yilda 12,4 mln. so‘m ajratilgan bo‘lsa, mustaqillikning dastlabki yilida-1992 yilda respublika byudjetidan bu maqsadda ajratilgan mablag‘lar 65,4 mln. so‘mni tashkil etdi. Jumladan, 1991-1997 yillar davomida Samarqand madaniyat va tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash ustaxonasi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 20 barobar, Shahrisabz ustaxonasi bajargan ishlar hajmi 23 martaga oshdi.

1997 yilda Buxoroda 366 mln. so‘m, Xivada 185 mln. so‘m hajmidagi, Amir Temur nomi bilan bog‘liq qadamjolarini ta’mirlash ishlarining ikkinchi bosqichi bo‘yicha 250 mln. so‘m hajmidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirildi. Agar 1999 yilda ushbu maqsadlar uchun 700 mln. so‘m ajratilgan bo‘lsa, bu raqam 2000 yilda 750 mln. so‘mga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 28 oktyabr-dagi “O‘zbekiston teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori mamlakatimiz ma’naviy madaniyati rivojida katta ahamiyatga molik bo‘ldi. Uning natijasida 5000 dan ortiq madaniyat va san’at xodimlarining yashash sharoitini yaxshilash imkoni tug‘ildi. Barcha teatr va musiqa muassasalari ijodiy xodimlarining o‘rtacha ish haqi 30-35 foiz ga oshirildi.

Mamlakat birinchi Prezidentining “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniya-ti, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomiragacha nazar

tashlaymiz”³, degan fikrlarida juda katta mantiq va ma’no bor. Biroq sovetlar mustabid tuzumi sharoitida o‘zbek milliy madaniyati haddan ortiq darajada ko‘p zarar ko‘rdi. Barcha mustamlakachilar kabi kommunistik mafkura maddohlari ham o‘zbek xalqini qul qilish uchun, eng avvalo, shu xalqning milliy madaniyatini yo‘q qilishga zo‘r berdilar.

O‘zbek xalqi katta yo‘qotishlarga qaramasdan, o‘zligini, o‘z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Bunga uzoq va yaqin tarix guvoh. Endigi vazifa ma’naviy hayotdagi barcha yo‘qotishlarning o‘rnini qoplashdan iborat bo‘ldi. O‘zbek xalqi ana shu yo‘ldan bordi, o‘z milliy tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini ko‘rsata bildi. Bu esa mustamlakachilar davrida yo‘qotilgan, toptalgan madaniy merosni tiklash, o‘zligini anglashga bo‘lgan rag‘batni uyg‘otdi.

Istiqlol yillarida o‘zbek madaniy hayoti uyg‘ondi, jonlandi va o‘zining butun bo‘y-bastini ko‘rsata oldi. Madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi.

Hozirgi sharoitda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan 36 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo‘g‘irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar. 1998 yil 26 martda O‘zbekiston birinchi Prezidenti I. Karimovning “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Unga binoan tomosha san’atining ko‘p asrlik an’analarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, teatr san’atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy negizini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol ishtirokini ta’minlash, badiiy-zamonaviy sahnabop asarlar yaratish maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi tizimida “O‘zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Umuman, so‘nggi vaqtlarda respublika teatrlarida har yili 130 dan ortiq mavzu va janrlarda spektakllar sahnalashtirildi. Hamza nomidagi teatrda “Piri koinot”, Farg‘ona viloyati Yu.Shakarjonov nomidagi musiqali drama teatrida “Imom Buxoriy”, Andijon viloyati Y.Oxunboboev nomidagi musiqali drama

³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘k. - T.: Sharq. 1998. 18-bet.

teatrida “Alpomishning qaytishi”, Xorazm viloyati Ogahiy nomidagi musiqali drama teatrida “Jaloliddin Manguberdi” kabi asarlarning sahnalashtirilishi o‘zbek milliy sahna san’atining rivojlanishiga ma’lum hissa bo‘lib qo‘shildi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda milliy istiqlol g‘oyasi va milliy mafkuraga nisbatan ijtimoiy munosabatning tubdan o‘zgarishi juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Darhaqiqat, hozirgi sharoitda milliy mafkura va milliy istiqlol g‘oyasi to‘g‘risida bizning bilim va tasavvurimiz tubdan o‘zgardi.

Mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida madaniyat va milliy istiqlol g‘oyasi mafkurasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik tobora ortib bordi. Bir tomondan, jamiyat ijtimoiy-madaniy, siyosiy barqaror-ligini ta’minlashda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkura roli tobora ortib borgani kabi, boshqa tomondan, mazkur qadriyatlar ijtimoiy ahamiyatini keng targ‘ib etishda madaniyat muassasalarining o‘rni yanada kuchdi.

Darhaqiqat, madaniyat muassasalari “mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog‘lari, muzeylar vaboshqa muassasalar ahamiyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, ruhiy-ma’naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqishga” alohida ahamiyat berdi.

Ta’kidlash lozimki, mustaqillik yillarida zamon, hayot talabiga binoan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi davr talabi va manfaatlariga mos takomil-lashgan tizimi shakllantirildi. Bunda ta’lim tizimi, muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot-resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘-lari ommaviy madaniyat muassasalari sifatida aholiga ma’naviy-ma’rifiy xizmat ko‘rsatdi. Zamonning va kun tartibida turgan vazifalarning mazmuni o‘zgara boshladi. 1994 yilda tashkil etilgan Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” 2006 yil 25 avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qaror asosida yangi mazmunga ega bo‘ldi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyati hamda uning tarkibiy tizimi qayta ko‘rib chiqildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishida faoliyat olib boradigan va davlat byudjeti hisobidan moliyalashti-rilgan "Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi" tashkil etildi. Res-publika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi shakllanti-rildi. Barcha viloyatlarda hokimlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari faoliyati yo'lga qo'yildi. Respublikamizda mahalla oqsoqollari va fuqarolar yig'inlari raislarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas-lahatchilari tizimi shakllantirildi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivoj-lantirish va samaradorligini oshirish borasida bir qator ijobiy chora-tad-birlar amalga oshirildi.

Ma'naviyat-ma'rifatga e'tibor, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali inson omilini yuksaklikka ko'tarish "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"⁴ (2010 yil 12 noyabr)da ham o'z aksini topdi.

Shunday qilib, mustaqillik O'zbekiston ma'naviy hayotini barqaror-lashtirish uchun zamin yaratdi, ma'naviy-ma'rifiy hodisalarga munosabatni o'zgartirdi. Istiqlool tufayli ma'naviy turmushimizdagi ko'plab muammolar hal etila boshladi. Qurilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat, bozor munosabatiga o'tish, jahon hamjamiyati bilan mafkuraviy tazyiqlarsiz o'zaro hamkorlik qilish imkoniyati O'zbekiston madaniyatini yuksaltirdi. O'zbekiston, o'zbek xalqining dunyoda o'ziga xos va mos o'rni borligi, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho xissasining e'tirof etilishi tufayli ma'naviy hayotning gullab-yashnashi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida

Prezidentlik instituti o'rni va roli

O'zbekistonda ilm-fanni, xususan, uni oliy ta'lim tizimida rivojlantirish yo'lida qator konseptual kamchiliklar, qiyinchiliklar mavjud edi. Birinchidan, SSSR tomonidan milliy respublikalarda ilm-fanning barcha sohalarini har tomonlama rivojlantirishdan manfaat yo'q edi, zero, bu narsa milliy kadrlarning

⁴Karimov.I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: 2010. – 4-bet.

shakllanishiga, pirovard natijada milliy o'zlikni anglash jarayoniga ta'sir etar edi. Ikkinchidan, sobiq markaz milliy respublikalarda asosan xom ashyo sohasini rivojlantirishga, asosan qishloq xo'jaligida zarur bo'lgan ilmiy ishlanmalarni tadqiq etishga e'tiborni qaratdi. Uchinchidan, oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar asosan "ijtimoiy buyurtma" asosida "rivojlandi".

1990 yilda O'zbekiston bo'yicha 44ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, ularning soni va sifatini oshirishga harakat qilindi. Prezidentning 1992 yil 28 fevraldagi Prezident Farmoni bilan 8ta viloyatdagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Qurolli kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent moliya instituti, Navoiy konchilik instituti va boshqa eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha oliy o'quv yurtlari ochildi. 1997 yilda Oliy ta'lim tizimida 58ta oliy o'quv yurti, shu jumladan. 16ta universitet va 42 ta institut faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ularda 164 ming talaba ta'lim oldi. 16ta universitetning 12tasi mustaqillik yillarida tashkil etildi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming professor-o'qituvchilarning 52 foizini fan doktorlari va fan nomzodlari tashkil etdi. Oliy o'quv yurtlarning 14 tasi texnik, 3 tasi iqtisodiy, 15 tasi gumanitar, 6 tasi pedagogik, 7tasi tibbiy, 4tasi agrar, 12tasi tarmoq mutaxassisliklarini tayyorlashga ixtisoslashgan.

2011 yil 20 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va unda oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitish shakllarini joriy etish, o'qituvchi kadrlar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Qarorga binoan 2011-2016 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chi-qildi va uni amalga oshirish uchun 277 mlrd. so'm mablag' yo'naltirildi. 2012 yil 10 dekabrda imzolangan Prezidentimizning "Chet tillarni o'rganish ti-zimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, yuksak ma'rifatli, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, O'zbekis-tonning jahon hamjamiyati integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizimini yanada kuchaytirish nazarda tutilgan. Ushbu qarorda yoshlarni chet tillarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, uni egallashlariga zamin yaratish maqsadida 2015-2016 o'quv yilidan boshlab oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonida kirish testlari blokiga chet tilining kiritilishi belgilab qo'yildi.

2012 yil 16-17 fevral kunlari poytahtimizdagi simpoziumlar saroyida prezident tashabbusi bilan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlanagan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi, unda Davlatimiz rahbari "Yuksak bilimli va intellektual rivojlanagan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusida ma'ruza qildi. Xalqaro konferensiyaga dunyodagi 8 ta nufuzli xalqaro tashkilot va moliya institutlari, jumladan 48 ta davlatdan 270 nafar olimlar va mutaxassis-lar ishtirok etib, uzluksiz ta'lim sohasini rivojlantirish va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rgandilar. Bugungi kunda 65 ta oliy o'quv yurtining 32 tasi viloyatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida ta'lim yo'nalishlari soni 139 tadan 195 taga, mutaxassisliklari soni 1145 tadan 1395 taga ko'paydi.

O'zbekistonda ilmiy-texnika va innovatsiya siyosatining takomil- lashib borishi va keyingi yillarda yanada jadalroq tus olishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi (2006 yil, 7 avgust) va "Innovatsion loyihalar va texnolo-giyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni

rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2008 yil 15 iyul) qarorlari turtki berdi. Ushbu qarorlar asosida Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 mart farmoyishiga muvofiq 2008 yilda moliyalashtirish hajmi 22476,3 mln. so‘mni tashkil etdi 1751 ta loyihadan iborat fundamental, amaliy va innovatsiya ilmiy-texnika dasturlarini amalga oshirish ta‘minlandi.

